

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

D.M.Boboqulova, M.M.Abduraimova, D.G‘.Abdugafurova,  
SH.B.Normo‘minova, M.K.Toshtemirova.

**YUNOGOGIKA**

( O‘quv qo‘llanma)

DENOV-2026

**Boboqulova D.M.** Yunogogika, (o‘quv qo‘llanma). Denov, 2026, 168 bet.

Mazkur “Yunogogika” o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti kengashining 2025yil 26.06.684-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan. Ta‘lim tizimini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish mamlakatimizda ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Fanni o‘qitishdan maqsad–talabalarga “Yunogogika” kursining maqsadi yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishi bilan shug‘ullanuvchi mustaqil ilmiy soha sifatida dolzarflik kasb etmoqda. Yunogogika pedagogikaning fan sifatida bugungi kunda barcha pedagogik yo‘nalishdagi talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni bilim va malakalarni egallashlarda ko‘maklashadi.

**Masul muharir:** Pedagogika fanlari doktori, professor **X.J.Xudayqulov**

**Taqrizchilar:** **R.Xurramov** Navoiy innovatsiyalar universiteti Sho‘rchi kampusi “Umumiy fanlar” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).

**Sh. Maxmudov.** Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dosenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2026-yil 18-martdagi № 7-sonli yig‘ilishida muhokama etilib, nashrga tavsiya qilingan.

**ISBN: 978-9910-5229-2-5**

© “Innovative publication” nashriyoti 2026

## Kirish

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy yetukligi, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida kamol topishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yunagogika yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishi bilan shug'ullanuvchi mustaqil ilmiy soha sifatida dolzarblik kasb etmoqda. So'nggi 10 yillikda yoshlar ongiga ijobiy ta'sirga ega bo'lgan qadriyatlarni singdirish, ularni zamonaviy kasb hunarga yo'naltirish, psixologik qo'llab-quvvatlash va ma'naviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ilmiy tadqiqotlar tobora kengayib bormoqda. Yunagogika fani yoshlarning shaxs sifatida shakllanishini, ularning ijtimoiy-madaniy muhit bilan o'zaro ta'sirini, axloqiy qarashlarining mustahkamlanishini tizimli o'rganadi. Shuningdek, fanda yoshlarning raqamli makonda tutgan o'rni, axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlardagi xulq-atvori, media savodxonlik, kreativ fikrlash, volontyorlik faoliyati kabi bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan yo'nalishlarga e'tibor kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Yoshlar siyosati" doirasidagi islohotlar, "Yoshlar daftari", "Mahalla yoshlari yetakchilari" instituti, yoshlar bandligini ta'minlash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar yunagogikaning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Bu esa fan oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda: yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, ma'suliyatli, ijtimoiy faolligi yuqori, global raqobatga moslashuvchan shaxs sifatida tarbiyalash. Ushbu o'quv qo'llanma yunagogikaning nazariy asoslari, metodlari, tamoyillari, yoshlar bilan ishlashning psixologik-pedagogik jihatlari hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni yoritishga qaratilgan. Materiallar tizimli, ilmiy va amaliy ruhda bayon etilgan bo'lib, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga, o'qituvchilar, murabbiylar, yoshlar yetakchilari, ijtimoiy pedagoglar hamda mazkur yo'nalishda faoliyat yurituvchi mutaxassislariga mo'ljallangan.

## **1-Mavzu. Yunogogika – pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida**

### **Reja:**

1. Yunogogika fanining kelib chiqishi.
2. Yunogogika fanining predmeti va obykti.
3. Yunogogika fanining funksiyalari.
4. Yunogogika fanining boshqa fanlar aloqadorligi.
5. Yunogogika fanining vazifalari.

**Tayanch tushunchalar:** yunogogika, predmeti, obykti, funksiyalari, fanlar bilan aloqadorligi, vazifalari.

### **Yunogogika fanining kelib chiqishi**

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib inson rivojlanishining barcha bosqichlarida (shu jumladan bolalik, yoshlik, yetuklik, qarilik) unga pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini o'rganish uchun ijtimoiy tartib shakllandi. XX asrning ikkinchi yarmida ta'limni barcha yoshdagi (ya'ni bolalik, yoshlik, etuklik, qarilik) insonni uzluksiz tarbiyalashga yo'naltirish paydo bo'lishi munosabati bilan, bir nechta nashrlarda yoshlar fanini yaratish g'oyasi o'z isbotini topgan. Yunogogika pedagogikaning o'smirlik va yetuklik davridagi shaxsga shaxsiy o'zini o'zi belgilash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish jarayonida pedagogik ta'sirni o'rganadigan, shuningdek, o'g'il va qizlarning ijtimoiylashuvi va tarbiya jarayonlariga xizmat qiluvchi pedagogikaning alohida sohasi sifatida belgilanadi. Yoshlarni ijtimoiy voqelikga moslashishda yordam berish uchun paydo bo'lgan ehtiyoj maxsus tadqiqotlarni talab qildi. Natijada yoshlar sotsiologiyasi va ijtimoiy pedagogikaning integratsiyalashuvi yuz berdi. XX asrning ikkinchi yarmidan barcha bosqichlarda pedagogik rivojlanish imkoniyatlarini o'rganish uchun ijtimoiy tartib kelib chiqdi. Pedagogikaning bu sohasi 1950-yillarning oxiri 1960-yillarning boshlarida vujudga kelgan. Yoshlar pedagogikasining murakkab muammolarini ishlab chiqishni zimmasiga olgan olimlar orasida I.P.Ivanov, L.I.Umanskiy, A.N.Lutoshkin, M.M.Yashchenko, A.V.Mudrik, S.E.Xose, B.Z.Vulfov va boshqalar bor.

Yunogogika ushbu olimlar tomonidan jamiyatda uyushgan va uyushmagan yoshlar ishining pedagogikasi va psixologiyasi muammolarini ishlab chiqishdan boshlandi. Keyinchalik kasb-hunar maktabi, texnikum, universitetda uyushgan va uyushmagan yoshlar ishini tashkil etishning pedagogik asoslari, ishlab chiqarishda yoshlarni tarbiyalashni tashkil etish olimlar va ularning izdoshlarining diqqat e'tiboriga aylandi.<sup>1</sup> XX asrning oxirgi yillarida androgogikaning rivojlanishi munosabati bilan bir qator nashrlarda "yunogogika" fanini yaratish g'oyasi bildirildi. Pedagogikaning ushbu sohasi o'smirlik davridagi shaxsga shaxsiy o'zini o'zi belgilash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish jarayonida pedagogik ta'sirni o'rganish uchun mo'ljallangan, shuningdek, o'g'il va qizlarni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash jarayonlariga xizmat qiladi. Shunday qilib, 20-asrning oxirida pedagogikaning "yunogogika" deb nomlanishi mumkin bo'lgan yangi sohasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish XXI asrning boshida respublikamizning bir qator oliy o'quv yurtlarida "Yoshlar bilan ishlashni tashkil etish" ixtisosligi bo'yicha talabalar tayyorlana boshlaganida alohida ahamiyat kasb etdi.<sup>2</sup>

### **Yunogogika fanining obyeksi va predmeti.**

Yunogogika fanining obyeksi - bu yoshlarga yo'naltirilgan ta'sir qilish jarayonini o'rganish, uning maqsadi ularning yetarli ijtimoiy, aqliy va jismoniy rivojlanishidir. Yunogogika fanining obyektini ko'rib chiqish bilan bo'liq holda, yoshlar o'rtasida yosh chegaralarini aniqlash zarurati tug'iladi. I.S. Kon "yoshlar" toifasiga ta'rif berib, uni yosh xususiyatlari, ijtimoiy maqom xususiyatlari va shu bilan bog'liq ravishda aniqlangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar asosida ajralib turadigan ijtimoiy demografik guruh sifatida belgilaydi. Umuman olganda, yoshlarga 14-15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar kiradi, deyishimiz mumkin. Bundan tashqari, olimlar tomonidan turli bosqichlarga bo'linadi. A.V. Mudrik erta yoshlikni - 15-17 yoshni, o'smirlikni - 18-23 yoshni, yoshlikni - 23-33 yoshlarga ajratgan. Yunogogika yoshlarning ijtimoiy kamolot davrida ular bilan maxsus tashkil

---

<sup>1</sup> Sobirov Ulug'bek G'ofurovich. O'quv qo'llanma. Buxoro-2023

<sup>2</sup> <https://doi.org//10.5281/zenodo.14578083>

etilgan ish jarayonida ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalarini qidiradi. Ushbu faoliyat subyektlari - professional yoshlar hisoblanadi. Yunogogika fanining predmeti - 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni munosib rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Yunogogika - pedagogikaning yosh shaxsning ijtimoiy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan bo'limi.<sup>3</sup>

### **Yunogogika fanining funksiyalari.**

Muayyan fanga xos bo'lgan, uning predmeti va pedagogik faoliyatning asosiy maqsadlari bilan belgilanadigan bir xil asosiy vazifalar odatda funksiyalar deyiladi. Pedagogikaning fan sifatidagi funksiyalari ma'lum bir fanga xos bo'lgan, uning predmeti va pedagogik faoliyatning asosiy maqsadlari bilan belgilanadigan bir xil asosiy vazifalar hisoblanadi. Yunogogikaning nazariy funksiyasi uchta darajada amalga oshiriladi:

**Birinchi darajada** - yoshlar mehnatini tashkil etish tajribasini o'rganish va yoshlar muhitidagi pedagogik jarayonlarning holati va natijalarini diagnostika qilish;

**Ikkinchi darajada** - yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayonida barqaror aloqalar va qonuniyatlarni aniqlash;

**Uchinchi darajada** - yoshlar mehnatini tashkil etishda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni prognostik tadqiq qilish.

**Texnologik funksiyani amalga oshirishning uchta darajasi quyidagicha:**

1. yoshlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha uslubiy materiallar ishlab chiqish;
2. pedagogika fanining yutuqlarini yoshlar bilan ishlash amaliyotiga joriy etish;
3. ilmiy tadqiqot natijalarining yoshlar bilan ishlashni tashkil etishga ta'sirini baholash, nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro aloqani mos ravishda tuzatish.

---

<sup>3</sup> Yuldashev E.S.O'quv qo'llanma. Qo'qon-2024

## **Yunogogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

Barcha yoshligida dunyo aslida u bilan boshlangan va hamma narsa faqat u uchun mavjud deb hisoblaydi. I. V. Gyote. Yunogogika fani bir qancha fanlar bilan aloqador. Ular quyidagilar:

**Pedagogika - yunogogika pedagogik nazariyalar asosida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va tarbiyalash metodlarini o'rganadi. Yunogogika har doim pedagogikaning metodlari, maqsadlari va ta'lim-tarbiya tamoyillariga amal qiladi.**

**Sotsiologiya - yoshlarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy rol va guruhlar, ijtimoiy institutlar, oila, mahalla, madaniyat va boshqa ijtimoiy tuzilmalar yosh tarbiyasiga qanday ta'sir qilishi sotsiologiyaning predmetidir, yunogogika esa bu bilimlardan foydalanadi.**

**Psixologiya - shaxsning individual o'sishi(intellektual va emotsional jihatlari), yoshning psixofiziologik xususiyatlari, shaxsning tarbiyada qanday psixologik usullar bilan qo'llab-quvvatlanishi - psixologiyaning nazariy va amaliy jihatlari yunogogika uchun zarur hisoblanadi. Yunogogika yoshlarning motivatsiyasi, ijtimoiy ongi, ijtimoiy moslashuvi kabi psixologik komponentlarini tatdiq etadi**

**Huquqshunoslik - yoshlarning huquq va majburiyatlari, bolalar huquqlari, yoshlar himoyasi, ijtimoiy xizmatlarning huquqiy asoslari - yunogogik faoliyatda huquqiy bilimlar zarurligini ko'rsatadi.**

**Madaniyatshunoslik va Etika - yoshlar tarbiyasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy-madaniy an'analar, odob-axloq, san'at va madaniyat ta'siri muhim. Yunogogika - yoshlar madaniyatida hamkorlik va madaniy identifikatsiya muammolarini hisobga olgan holda, bu jihatlarni inklyuziv tarzda o'rganadi.**

**Tibbiyot fanlari - yoshlar salomatligi, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktika, psixologik xizmatlar -bu kabi jihatlar yunogogikani tibbiyot fanlari bilan bog'lab turadi.**

**Tarbiya texnologiyalari - yoshlar bilan ishlash metodlari, uslublar, talimiy-tarbiyaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda ularning samaradorligini o'lchash va takomillashtirish yunogogika uchun muhim hisoblanadi.**

### **Yunogogika fanining vazifalari**

Yunogogikaning asosiy vazifalaridan biri bu - tarbiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Bunda quyidagilar muhim hisoblanadi: Tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalarini aniqlash. Inson shaxsining shakllanishiga ta'sir qiluvchi ichki (psixologik, biologik) va tashqi (ijtimoiy, madaniy, muhit) omillarni o'rganishdan iboratdir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yo'nalishlarni aniqlash.

Yunogogika – bolani bir yoqlama emas, har tomonlama rivojlantirish tarafdori. Bu quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- 1. Axloqiy tarbiya** - ezgulik, halollik, vatanparvarlik, to'g'rilik singari fazilatlarni shakllantirish;
- 2. Estetik tarbiya** - san'atni anglash, go'zallikka intilish, did va madaniyatni rivojlantirish;
- 3. Jismoniy tarbiya** – sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarda sportga qiziqish uyg'otish;
- 4. Aqliy tarbiya** - yoshlarni bilim olishga, ilmga, tafakkurga bo'lgan qiziqishini shakllantirish;
- 5. Mehnat tarbiyasi** - bolalarni mehnatni qadrlashga, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatish.

**6. Tarbiyaning uslubiy va amaliy yo‘nalishlarini ishlab chiqish** - bu vazifa tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Bunga quyidagilar kiradi:

- tarbiyaviy suhbatlar, mashg‘ulotlar, tadbirlar, ekskursiyalarni tashkil etish usullari;
- tarbiyada samarali metod va vositalardan foydalanish (masalan, namuna ko‘rsatish, rag‘batlantirish, nazorat qilish);
- darsdan tashqari va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

**7. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni o‘rganish.** Tarbiyaviy jarayon faqat maktab bilan cheklanmaydi. Yunogogika - oila, maktab, mahalla, jamiyat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo‘llarini o‘rganadi. Ota-onalar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, ularning pedagogik savodxonligini oshirish kabi masalalarni ham o‘rganadi.

**8. Tarbiyaviy ta‘sir vositalarini tahlil qilish va takomillashtirish.** Yunogogika fanining navbatdagi vazifasi - tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan vositalarni sinchkovlik bilan o‘rganish: Kitoblar, ommaviy axborot vositalari, internet, kino, teatr, xalq og‘zaki ijodi vositalari qanday ta‘sir qilmoqda? Bolalar olamiga qanday ruhiy yoki axloqiy ta‘sir ko‘rsatmoqda? Bu vositalarni qanday qilib ijobiy maqsadlar yo‘lida yo‘naltirish mumkin?

**9. Zamonaviy tarbiya muammolarini o‘rganish va yechim topish.** Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida ko‘plab dolzarb muammolar uchraydi: Ijtimoiy tarmoqlarning noto‘g‘ri ta‘siri, milliy qadriyatlarning zaiflashuvi, axloqiy inqiroz holatlari, zo‘ravonlik, befarqlik, radikal g‘oyalarga berilish va h.k. Yunogogika bu kabi muammolarni chuqur o‘rganib, ularga ilmiy asoslangan yechimlar taklif qiladi.

**10. Yangi pedagogik yondashuvlar asosida tarbiya strategiyasini ishlab chiqish:** Bugungi kunda tarbiya ishlarini faqat an‘anaviy usullar asosida olib borish yetarli emas. Shu sababli: Innovatsion pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, inklyuziv yondashuvlar, loyiha asosidagi o‘qitish kabi

metodlar tarbiyada ham keng foydalanilmoqda. Yunogogika bu yondashuvlarni tarbiya tizimiga uyg'unlashtirish ustida ish olib boradi.

Yunogogika - bu yosh avlodning to'g'ri shakllanishi, sog'lom jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi uchun zamin yaratadigan muhim fan hisoblanadi. Uning qo'shimcha vazifalarini atroflicha ko'rib chiqamiz:

- nazariy asos yaratish;
- tarbiyaviy metodlarni ishlab chiqish;
- shaxsni har tomonlama rivojlantirish;
- ota-ona va jamiyat bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- tarbiyaning dolzarb muammolarini hal etish;
- yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. I.S. Kon "yoshlar" toifasiga qanday ta'rif bergan?
2. Yunogogika fanining predmeti nima?
3. Yunogogika fanining obykti nima?
4. Yunogogika qaysi fanlar bilan aloqador?
5. Yunogogikaning nazariy funksiyasi nechta darajada amalga oshiriladi?

<https://uz.wikipedia.org>

<https://arxiv.uz>

## **2-mavzu.Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosliklari**

### **Reja:**

1. Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosliklari.
2. Tarixiy manbalarda yoshlar masalalarining yoritilishi.
3. G‘arb uyg‘onish davrida yoshlar muammolarining o‘rganilishi.
4. Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari asarlarida yunogogika fanining rivojlanishi.

**Tayanch tushunchalar:** Avesto, yozma manbalar, yodgorliklar, g‘arb uyg‘onish davri, Sharq uyg‘onish davri, Zardushtiylik, Axura Mazda, gumanizm, quvonch uyi, mehribonlik uyi, maktab-internat.

### **Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosliklari.**

Yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish bo‘yicha ishlar ham maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan yoshlar bilan ishlashning professional tashkilotchilari va turli ko‘ngillilar tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish ko‘plab tarkibiy qismlarga, jumladan, yoshlar bilan ishlash vazifalarini amalga oshirish uchun juda muhim bo‘lgan pedagogik komponentga ega. Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis tayyorlashning o‘ziga xos murakkab tarixi bor. Mustaqillikdan oldingi davrda mehnat tashkilotchilari (o‘sha paytdagi komsomol ishchilari. Komsomol ruscha “Коммунистический союз молодёжи (Kommunistik yoshlar ittifoqi)” iborasining qisqartmasidir) faqat 1969-yilda, Moskvada Oliy komsomol maktabi tashkil etilgandan so‘ng, 1990-yilda Yoshlar instituti deb o‘zgartirilganda, mutaxassislar sifatida professional ravishda tayyorlana

boshladilar. Shu bilan birga, komsomol ishchilarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmog‘i ham ishga tushdi. Bu faoliyat turli darajadagi partiya maktablarida olib borildi va 1970-yillarning boshlarida zonal komsomol maktablari tarmog‘i yaratildi.

1960-yillarning oxirida mamlakatning bir qator pedagogika oliy o‘quv yurtlarida komsomol ishlari uchun metodistlar tayyorlaydigan va shu paytning o‘zida tarix o‘qituvchilari sifatida tayyorlaydigan “istpedlar(Tarix va pedagogika yoki Ijtimoiy pedagogika yo‘nalishlari)” tashkil etildi.

1992-yilda komsomolning yo‘q qilinishi bilan yo‘q qilingan yoshlar bilan ishlash tashkilotchilarining kasbiy tayyorgarligi va qayta tayyorlashning yetarli darajada izchil tizimi ishlab chiqildi va faqat yangi asrning boshida, ya’ni 2001-yilda tajriba sifatida mamlakatimizning bir qator o‘quv yurtlarida yangi “Kamolot” yoshlar harakatini ochishga qaror qilindi. Ayni vaqtda 2017-yildan boshlab ushbu ijtimoiy harakat “Yoshlar ittifoqi”ga o‘zgartirildi. Shunga ko‘ra, ushbu mutaxassisga qo‘yiladigan kasbiy malaka talablari va uni tayyorlash standarti tasdiqlandi.

**Standart - bu mutaxassisning kasbiy faoliyat sohasini belgilaydi:**

- yashash, o‘qish, ishlash, dam olish joyidagi yoshlar jamoalari bilan ishlash;
- qiziqishlari asosida yoshlar birlashmalari bilan ishlash (kasbiy, ijodiy, sport birlashmalari);
- norasmiy yoshlar guruhleri bilan o‘zaro munosabatlar, yoshlar va bolalar jamoat birlashmalari;
- yoshlar o‘rtasida g‘ayriijtimoiy hodisalarning oldini olish;
- yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularni uy-joy bilan ta’minlash, oila qurish, yoshlarni tarbiyalash b‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- yoshlarni axborot bilan ta’minlash.

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining odatiy pedagogik vazifalariga quyidagilar kiradi:



Pedagogik faoliyat doimo ta'sirni o'z ichiga oladi, uning maqsadi odamlar hayotidagi sifat o'zgarishlaridir. Bu ta'sirlar munosabatlar tizimini tartibga solishga qaratilgan, ya'ni o'qituvchi birinchi navbatda muayyan shaxsga nisbatan boshqaruv vazifalarini amalga oshiradi. O'qituvchi ta'sir va boshqaruv bilan bir qatorda shaxsning o'zini o'zi tarbiyalashi va rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Tarixiy manbalarda yoshlar masalalarining yoritilishi. Insoniyat tarixi davomida yoshlar jamiyatning eng faol, ijodkor va yangilikka intiluvchi qatlamini tashkil qilib kelgan. Shuningdek, qadimdan davlat arboblari, mutafakkirlar va diniy rahnamolar yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish masalasiga alohida ahamiyat berganlar. Tarixiy manbalarga nazar tashlasak, yoshlar masalasi, ya'ni ularning ta'limi, axloqi,

jismoniy tarbiyasi, jamiyatdagi o'zni deyarli barcha davrlarda yoritilganini ko'rishimiz mumkin. "Avesto" - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonning kamolotga erishuvida mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan. Zardushtiylik dinining nomi shu din asoschisi Zardusht (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) nomidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht miloddan avvalgi I ming yillikning I choragida yashagan. Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, saxovatlilik belgisi – mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik esa barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Zardushtiylik yoyilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida bo'lib o'tgan. Keyinchalik kohinlar Zardusht va'zlarini yozib borganlar. Zardusht dini kohinlari bunday diniy matallarni yoddan bilganlar va ibodat paytida o'qiganlar, Zardusht vafotidan bir necha asrdan keyin barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltirildi. Bu zardushtiylar muqaddas kitobi "Avesto" edi. "Avesto" so'zi "qat'iy qonunlar" ma'nosini anglatadi. Zardusht diniga ko'ra, atrofdagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o'rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong'ulik, hayot bilan o'lim, ezgulik va yomonlik, qonun va qonunsizlik o'rtasida. Zardushtiylar hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so'z, oliyjanob o'y-fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq kabi nasihatlar. Zardusht dini bo'yicha har bir inson hayot yo'lini o'zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o'zi hal qiladi. Zardushtiylikda olov, yer, suv va havo muqaddas hisoblangan. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralastirmaslik lozimligi aytilgan. "Avesto" asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g'oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. "Avesto" diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga, o'zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan. Zardushtiylik dinining g'oyalari ustida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga

asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, yer, chorva, daraxt hamda o'simliklar ulug'lanadi; kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Ushbu bo'limda shaxsiy gigiyenaga amal qilishga oid qoidalar: tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi. Bildirilayotgan fikrlardan tushuniladiki, zardushtiylik dinining g'oyalari ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson saxovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

Qadimgi Xitoyda Konfutsiy (mil. avv. VI–V asrlar) yoshlarni “ota-onaga sadoqatli, donishmandlikka intiluvchi” insonlar sifatida deb bilgan. U yoshlarni tartib-intizom va hurmat asosida tarbiyalashni asoslab bergan.

Hindistonda “Manu qonunlari”da yoshlar uchun ijtimoiy burch va axloqiy me'yorlar belgilangan.

Afinada yoshlar tarbiyasi san'at, falsafa, sport va nutq madaniyatiga asoslangan. Platon, Aristotel singari faylasuflar yoshlarning aqliy va axloqiy kamolotini muhim deb bilgan. Spartada esa yoshlar 7 yoshdan boshlab davlat uchun jangchi sifatida tarbiyalangan. Bu tizim “harbiy vatanparvarlik” g'oyasiga asoslangan edi.

Aristotel “Siyosat” asarida shunday yozgan: “Davlatning kelajagi yoshlarning qanday tarbiya olganiga bog'liq.” Yunogogika mustaqil fan sifatida oxirgi yillarda o'qitila boshlangan bo'lsa-da, u ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy himoya ko'rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) kutubxonasi manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko'ramiz.

Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni yuzaga chiqardi. Ular mintaqadagi oila va jamiyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning arablar tarkibiga kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o'zaro munosabatlarning shakllanishini yuzaga keltirdi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma'naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga yordam berdi.<sup>4</sup>

Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida yunogogika fanining rivojlanishi.

Ijtimoiy-pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg'onish davri olimlarining asarlari alohida o'rin tutadi. Ular faoliyatining mohiyati o'sha davrgacha mavjud bo'lgan ijtimoiylashtirish usullarining ilmiy asoslangan tizim holatiga keltirganliklaridadir. Yetuk olimlarning faoliyatidagi o'ziga xoslik, ya'ni doimiy ilm bilan mashg'ul bo'lish, bilimga chanqoqlik ularning ijtimoiy-pedagogik qarashlarining mazmunida o'z aksini topadi. Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan yoshlarga qaratish g'oyasini ilgari surishgan va buni tadbiq etishgan. Bu, avvalambor, ular ta'limning maqsadini hayotga tayyorlash, axloqiy me'yor va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishda deb bilganliklarida namoyon bo'lgan. Mashhur olim Al-Xorazmiy (783-850 y.) asarlari yorqin didaktik tavsifga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo'lga kiritilishi, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishi va jamiyatning faol a'zosiga aylanishini aytib o'tgan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1050y.) ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U, shuningdek, ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Allomaning pedagogik qarashlarini ijtimoiy yo'naltirilishi axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan. Uning tarbiya shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy faoliyati uchun ilm va mehnatning

---

<sup>4</sup> Sobirov Ulug'bek G'ofurovich. O'quv qo'llanma. Buxoro-2023

ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va haligacha saqlab kelmoqda. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan bo'lib, uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Olimning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof-muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari hozir ham nihoyatda muhim sanaladi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar ta'lim muammolari bo'yicha fikrlar bildirishgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini alohida ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

- asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;
- amaliyotni tajriba bilan bog'lash;
- qabul qila olishlik;
- ko'rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy-pedagogik yo'naltirilganligi ularning, avvalambor, hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. Ular shaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim sifatlar — bu mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik va sabr deb hisoblaganlar. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnatsevarlik xislatlari tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va Ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining eng muhim omillari sifatida faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik va aqliy qobiliyatlarni ko'rsatib o'tishgan. Forobiy ijtimoiy tarbiyada o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratib, uning faoliyatini - jamiyatning

kelajagi unga bog'liq bo'lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham Ibn Sino kabi o'qituvchilar e'tiborini o'quvchilarning bilimlarini hayotga tadbiq etishlariga qaratishlari lozimligiga ishora qilgan. Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o'zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqega erishganlik namunasi bo'lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo'lgan va doim yordam berishga intilgan. Forobiyning o'quvchilarni individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos keluvchi ta'limning ustuvorligi, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Forobiy 70ta tilni bilgan. Tarbiyaning ijtimoiy xarakteri haqidagi g'oyalar Alisher Navoiyning adabiy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar tavsifga ega. Buyuk alloma inson egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va kasb-hunarlar u tomonidan Vatan foydasi uchun qo'llanilishi kerakligini alohida ta'kidlab o'tgan. Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sinolarning falsafiy va pedagogik konsepsiyalari keyingi davrlarning yetakchi ta'limotlarini rivojlantirish uchun asos vazifasida xizmat qilgan. XI — XII asrda yashab ijod qilgan Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan, pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. Yusuf Xos Hojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalar jamiyatda o'z o'rnini topishida bilim, ota-ona, oilaning o'rnini alohida ajratib ko'rsatadilar. Ular tarbiyaning asosiy maqsadi deb komil insonni tarbiyalash, unga yetishish vositasi sifatida esa qattiqqo'llik va doimiy mehnatga o'rgatishni tushunishgan. Zarnujiyning “Ta'limda o'quvchiga pandlar” kitobi, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari Markaziy Osiyoda pedagogikaga oid bo'lgan birinchi kitob hisoblanadi. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida: “Yoshlarni tarbiya qilmoq – millatni tarbiya qilmoqdir” deb aytadi.

Markaziy Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta'limning ijtimoiy o'rnini ijtimoiylashuvning mikroomillar: muhit, oila va o'quvchilar guruhiga e'tibor qaratganlarida hamda ota-onalar, pedagog va o'quvchining harakatlarini mujassamlashtirish kerakligi bilan bog'liqlikda ochib berganliklarida yorqin namoyon bo'ladi. Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogika sohasida katta meros qoldirganlar. Ularning ilmiy

pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmini rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi. <sup>5</sup>

### **G'arb uyg'onish davrida yoshlar muammolarining o'rganilishi.**

XV-XVI asrda avval Italiyada, so'ngra Yevropaning boshqa davlatlarida kapitalistik munosabatlar vujudga kela boshladi. Paydo bo'layotgan yangi toifa vakillariga, xususan, ziyolilarga asketizmning tamoyillari begona edi. Yangi burjua madaniyati shakllana boshlagan bir paytda uni tavsiflash uchun insoniylashtirish va qayta tiklash tushunchalari qo'llanilgan. Gumanizm (insoniylik) tushunchasi yangi madaniyat markazida ilohiylik emas, inson shaxsi turishidan guvohlik berardi. Insonning o'zi ham qalban va jismonan go'zal bo'lishi lozim. U faqatgina o'z ongi, kuchi, muvaffaqiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha qadriyatlar va o'z baxtining yaratuvchisiga aylana oladi. Shu bilan birga, gumanistlar cherkovga ochiqdan ochiq qarshi chiqmaganlar. Ular xudoga buyuk yaratuvchi sifatida qarashgan.

XIV-XVI asrlar gumanistlarining aksariyati o'zlari pedagog bo'lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat qilishgan. Gumanizm g'oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab kuzatila boshlangan. Asl tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra doim go'zallik haqida, uning kelajagi haqidagi g'amxo'rlikni bildirgan. Uyg'onish davrida ijtimoiy gumanizm g'oyalarining amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vitgorino de Genotre (1378-1446) tomonidan ilk marta "Quvonch uyi" nomli maktab-internat yaratilishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, ta'riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijtimoiy pedagogika bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Diniy qarashlarda asosiy e'tibor umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda, oyatlarda axloqiy o'gitlar, insonlararo munosabatlar, qavm-qarindoshlarga, bolalarga g'amxo'rlik haqida ko'p aytib o'tilgan. Bu asosda ko'pgina avlodlar tarbiya topishgan va bu borada Yevropada cherkov uzoq vaqt mobaynida "nogiron bolalar rahnamosi" bo'lgan. Unga nafaqat ruxdan yordam so'rab, balki tibbiy, moddiy yordam so'rab, adolatsizlikdan himoya so'rab murojaat qilishgan. Bu borada butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy an'analari mavjud. Masalan, Yevropada antik davrlardan buyon ota-onasiz qolgan

---

<sup>5</sup> Sobirov Ulug'bek G'ofurovich. O'quv qo'llanma. Buxoro-2023

bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga qo'yib ketilgan. Manbalarga ko'ra, otanasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya shahrida yepiskop Vasiliy Kesariyning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787-yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lgan. Uzoq vaqt u Yevropada yagona tashkilot bo'lib qolavergan va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni o'ttiztagacha ko'paygan. Qizig'i shundaki, bu uylarda faqatgina bolalarga g'amxo'rlik qilmasdan, profilaktika ishlari ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni boshqa oilalar tarbiyasiga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640-yil ruhoniy Vinsento Depolen tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashhur bo'lgan. U tarbiya uyini qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug'ullanuvchi ordenlar - xayriya yo'lida qilgan ishlari orqali keyinchalik mashhur bo'lib ketgan yirik cherkov tashkilotlari tuzila boshlagan.

XVII-XIX asrlar – ijtimoiy pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy konsepsiyalar bilan boyitilgan davr bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. XVIII-XIX asrlar (burjua-demokratik inqiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlangan. Aynan shu davrda ijtimoiy pedagogikadagi asosiy yo'nalishlarning aniq faoliyatda amalga oshishi sodir bo'ldi. Ijtimoiy-pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga fransuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar J.J. Russo (1712-1778) ulkan hissa qo'shgan. U huquqiy, diniy va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari surgan. Rus qomusiy olimi va pedagogi M.V.Lomonosov (1711-1765) "Reglamentlar"ida tarbiyaning xalqparvar g'oyalarini, insonga faol shaxs sifatida yondashuvni hamda bolada axloqiy sifatlarini shakllantirishning o'ta muhimligini bayon etgan. Yangi ijtimoiy-pedagogik g'oyalar fransuz faylasufi va ma'rifatparvari Klod Adriana Gelvesiy (1715-1771) ishlarida ham tilga olingan bo'lib, ular tarbiya omillari hisoblanmish muhit va pedagogik ta'sir hamda shaxs va jamiyat manfaatlarining birligi masalalaridir.

Shvetsariyalik buyuk pedagog Iogann Genrix Pestalossi (1746-1827 y) o‘z faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariya va amaliyotni birlashtirgan va o‘z mablag‘lari hisobiga Yetimlar uylarini ochgan. Ingliz faylasufi va pedagogi Robert Ouenning ijtimoiy-pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermahsul tajribalardan tashkil topgan. Nyu-Lenarkda “Inson xarakterini tuzishning yangi instituti”ni ishchilarning turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chiqarish ta’limini madaniyat bilan bog‘lab qo‘ydi. Jahonda ilk marta didaktik o‘yinlar o‘tkaziladigan, bolalarning jismoniy holati haqida g‘amxo‘rlik qiladigan muassasalar u tomonidan tuzilgan.

Ingliz faylasufi Gerbert Spenser (1820-1903) oilaning shaxs shakllanishidagi o‘rni haqidagi ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar bilan singdirilgan asarlar yaratgan. Bu maqsadlarga erishishi uchun u qiziq usulni ilgari surgan, ya’ni Angliyaning davlat va siyosiy tuzilmasini oila va maktab tomonidan imitatsiyalashuvini. XIX asr shunisi bilan xarakterliki, bu davr mobaynida, bir tomondan, ijtimoiy pedagogikaning pedagogika fanidan ajralish jarayoni sodir bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlar bilan yaqinlashuvi ro‘y bergan.<sup>6</sup>


### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining odatiy pedagogik vazifalariga nimalar kiradi?
2. Yana qanday tarixiy manbalarda yoshlar masalalari xususida so‘z borgan?
3. G‘arb davlatlaridan yoshlar masalalariga alohida qaragan yana qanday shaxslarni bilasiz?
4. Sharq davlatlaridagi buyuk shaxslarning yoshlar masalalari bo‘yicha fikrlar?
5. Jadidchilik harakati namoyondalaridan kimlarni bilasiz?

---

<sup>6</sup> Sobirov Ulug‘bek G‘ofurovich. O‘quv qo‘llanma. Buxoro-2023

6. Vitgorino de Genotre maktab-internat nomini “Quvonch uyi” deb nomlashiga nima sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?



Venn diagrammasi orqali sharq va g‘arb mutaffakkirlarining tarbiyaviy qarashlarini tahlil qiling. Yana qanday buyuk shaxslarning yoshlat tarbiyasiga oid qarashlarini o‘rgangansiz.

### 3-mavzu. Shaxs va individuallik. Ijtimoiylashuv va yoshlar ta’limi

#### Reja:

1. Shaxsning shakllanish jarayonlari va Individuallik
2. Shaxsning ijtimoiylashuvi.
3. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.
4. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

**Tayanch tushunchalar:** shaxs, shakllanish, individ, individuallik, omillar, ta’lim, ijtimoiylashuv, ijtimoiylashtirish, muhit, biologik omil.

#### Shaxsning shakllanish jarayonlari va Individuallik

Dunyoga kelgan go‘dak ma’lum yoshga qadar individ hisoblanadi. “Individ” lotincha “individium” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bo‘linmas”, “alohida”, “yagona” ma’nolarini anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir. Shaxsning shakllanishida harakat o‘ziga xos omil hisoblanadi. Go‘dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik shartli reflekslar bo‘lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo‘zg‘otuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Go‘dakda

nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, uning tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo‘la boshlanishi va albatta, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro‘y berishi shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a‘zosini ifodalashga xizmat qiladi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.<sup>7</sup> Inson hayot faoliyati davomida o‘zgarib, shakllanib, rivojlanib boradi. Bolalik, o‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida rivojlanish nihoyatda kuchli bo‘ladi. Inson bo‘lib tug‘ilgan har qanday odam ham shaxs bo‘la oladimi? Shaxs bo‘lishi uchun nimalar kerak? Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy hayot sharoitlari va maqsadga qaratilgan tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shu jarayonlar ta’siri ostida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

“Dunyoda mavjud bo‘lgan jami borliq - deb yozgan edi Ibn Sino, - o‘z tabiatiga ko‘ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilish esa o‘z mohiyati e’tiborida yaxshilikdir”. Ayniqsa inson tirik mavjudot sifatida kamolotga yetishga doimo intiladi.

Mutafakkir A.R.Beruniyning da’vosicha, hamma odamlar o‘z qiyofasi jihatidan bir-biriga o‘xshaydi, ammo ayni choqda ular bir-biridan farq qilib turadi. Bu tafovut “ular temperamentining tabiat xususiyatlari va hokazolarining ziddiyatli bo‘lishi tufayli ularning instentlari zamirida yotadi”, deb izohlangan. Haqiqatan ham insonlar bir-birlariga umumiy holda

---

<sup>7</sup> Sobirov Ulug‘bek G‘ofurovich. O‘quv qo‘llanma. Buxoro-2023

o'xshaydi, ammo, tabiati, tabiiy xususiyatlari, xarakteri bilan bir-birlaridan farq qiladi.

Individuallik insonni hayvonot va ijtimoiy dunyodan ajratib turadigan narsadir. Individuallik insonga o'zini erkin, mustaqil mavjudot sifatida namoyon qilish imkoniyatini beradi(I.Kant). Uning harakatlarining manbai insonning individualligida yashiringan. Individuallikni shakllantirgan shaxs o'zining kuchli tomonlariga to'liq tayanadi va u nafaqat erkin shaxs, balki mustaqil shaxs hisoblanadi. Inson individualligi shaxsda inson rivojlanishining yuqori darajasi sifatida qaraladi. K. Rojers bunday shaxsni "to'liq ishlaydigan shaxs"- deb atagan. Ushbu ta'rif o'z qobiliyatlari va iste'dodlaridan foydalanadigan, o'z potensialini ro'yobga chiqaradigan, o'zini va tajriba doirasini to'liq bilishga intiladigan odamlarga nisbatan qo'llaniladi.<sup>8</sup>

### **Shaxsning ijtimoiylashuvi**

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan: Shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar(mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rinda turadi. Ijtimoiylashtirish omillarini A.V.Loyrik o'z asarlarida o'rganib chiqqan. Uning fikricha, o'z asarlarida sotsializatsiya omillarini to'rt guruhga birlashtiradi.

**Birinchi guruh megafaktorlar** (universal) - fazo, sayyora, dunyo, ular globalligi tufayli Yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi.

---


<sup>8</sup> Yuldashev E.S.O'quv qo'llanma.Qo'qon-2024

**Ikkinchi guruh makro omillar (katta)** - mamlakat, etnik guruh, jamiyat, davlat, ma'lum mamlakatlarda yashovchi har bir kishining ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi.

**Uchinchi guruh - mezofaktorlar (oraliq)** - turar-joy turi, ommaviy aloqa vositalari, ma'lum bir jamiyatning submadaniyati, shu jumladan yoshlar subkulturasini.

**To'rtinchi guruh mikrofaktorlar (odamlarga bevosita ta'sir qiladi)** - oila va uy, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, ta'lim tashkilotlari (shu jumladan, ta'lim muassasalari), jamoat tashkilotlari, mikrosotsiumlar.

Shaxsning ijtimoiylashuvi o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Yunogogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni Yunogogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab chiqiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni - tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir. Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi - insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo'lib yetishishiga, jamiyatda o'z o'rnini va xulq-atvorini, o'z istak-maqсадlarini yo'nalishini angelaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo'nalgan shaxs bo'lishiga yordam berishdir.



O‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo‘nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yishda o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajriba kabilar kiradi. Ijtimoiy tajriba o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o‘zida aks ettirib, faoliyatga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o‘quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o‘zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig‘indisini o‘zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o‘z-o‘zini tashkillashtirish va o‘z-o‘zini korreksiyalash madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan “o‘z-o‘zini boshqarish tajribasi”ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o‘zaro aloqador yo‘nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma‘naviy-axloqiy

me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.<sup>9</sup>

### **Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar**

Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan beri davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

### **Irsiyat**

Irsiyat deganda, bolaga ota-ona va umuman yaqin ajdodlardan ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning rolga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan bixeviorizm nazariyasini amerikalik olim E.Torndayk asos slogan. Uning aytishicha, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Pragmatizm oqimi otaxoni amerikalik D.Dyun va uning hozirgi davomchisi A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. "Haqiqiy tarbiya tashqaridan kiritiladigan narsa emas, u odam bilan dunyoga kelgan xususiyat va qobiliyatni o'stiradi", deydi D.Dyun.

---

<sup>9</sup> Sobirov Ulug'bek G'ofurovich.O'quv qo'llanma.Buxoro-2023

**Biogenetiklar (Bolduin, Chamberlin, Stenli Xoll va boshqalar)** XX asr boshlarida bolaning ruhiy jihatdan o'sishini, zoologlar F.Myuller va E.Gekkellar tomonidan kashf qilingan biogenetik qonun asosida boradi, degan fikrni ilgari suradilar. Biogenetik qonun "Ontogenez filogenezni takrorlaydi" deb ta'riflanadi. Ma'nosi -har bir organizm o'zining embrional taraqqiyotida o'zidan (oldingi) avvalgi barcha bosqichlarni takrorlaydi, ya'ni individual organizm o'zining tuxum xo'jayra holatidan mukammal holatga yetguncha boshidan kechiradigan qator shakllarni shu organizm ajdodlari bosib o'tgan juda ko'p shakllarining qisqa, ixcham takrorlanishi demakdir.

Avstraliyalik ruhshunos K. hatto bolaning aqliy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Boshqa chet el ruhshunoslari bolaning ruhiy taraqqiyotida tana tizimlaridagi endokrin apparati (ichki sekresiya bezlari) dagi o'zgarishlar va hokazolar katta ahamiyatga ega deb biladilar. Ayrim pedagog va ruhshunoslar orasida bolaga boshqacha qarash ham mavjud. Ularning fikricha, insonning kamolati ikki omilga - irsiyat va ijtimoiy muhitga bog'liqdir. Irsiyat o'zgarmaydi, ijtimoiy muhit hamma davrlar uchun o'zgarmasdir. Antropologiya fani yutuqlariga asoslanadigan bo'lsak, tarixiy, ijtimoiy taraqqiyot natijasida odamning anatomik, fiziologik belgilar (odamning kalla suyagi, qo'li, oyoqlari, aqliy qobiliyatlari ham) o'zgarishi mumkin. Demak, bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onaga, avlod-ajdodlarga o'xshashlikni ifodolovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bola ota-onasidan meros sifatida biologik ko'rinishlarga (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terisining rangi, bo'yi-basti) ega bo'lib dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Bu haqida I.A.Karimov "Odam tabiiy omillarga - ko'ra o'zi mansub bo'ladigan irq va ellatni tanlay olmaydi. Ota-onani tanlay olmaydi. Lekin dunyoqarashni, axloqi, ma'naviyatini o'zi, hech kimning tazyiqsiz va ayniqsa zo'ravonliksiz tanlab olishi mumkin va lozim" - degan edi. Ayni vaqtda bolaga, insonlarga xos xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan tug'ma o'tadi. (Masalan, aqliy yoki jismoniy mehnat qilishi va nutqning rivojlanishi va hokazo). Ammo bular tug'ma imkoniyatlar bo'lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi, ijtimoiy mehnatda ishtirok etmog'i lozim. Chunki inson biologik mavjudod sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudod sifatida rivojlanadi va kamolga yetadi.

## Muhit

Fiziologiya va ruhshunoslik fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror - bir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi manbai - layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'zicha rivojlana olmaydi, rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Sa'diy Sheroziyning fikricha qobiliyatli va kam qobiliyatli bolalar bo'ladi. Ammo qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi bor qobiliyat ham yo'qoladi. Uning kamol topishi uchun kamolatga asos bo'ladigan qobiliyat negiz bo'lishi kerak. Sa'diy o'z fikrini isboti uchun "Guliston" asarida "Bir vazirning takasaltang o'g'li bor edi. Vazir o'g'lini bir donishmand huzuriga eltib: "Shuni tarbiya qil, shoyad aqli kirib, odam bo'lsa" - deydi. Donishmand vazirzodani uzoq muddat tarbiya qildi, foydasi bo'lmadi. Bolaning otasiga bir odam orqali: "O'g'ling odam bo'lmadi, meni ham aqldan ozdirdi" - deb xabar qildi. U bu voqeadan shunday xulosa chiqaradi:"

Qobiliyat bo'lsa aslida,

Tarbiya unga qiladi asar.

Qancha urinsa bo'lmas sayqali,

Temir aslida bo'lmas gavhar(143)

"Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik - zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma", - deb ta'kidlagan A.Navoiy. Bundan tarbiyaning natijasi odamni qobiyatlilik darajasiga bevosita bog'liqligi asoslanayapti. Masalan, qobiliyati bo'lmagan insonni aqlli mehnat qilishga yo'llash ijobiy natija bermasligini ta'kidlash kerak. Yoki biror kasblarni egallashga ham bu g'oyani tadbiq etish mumkin. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa, yo'q bo'lishi yoki "mudroq" ligicha qolib ketishi mumkin. Demak, boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq desak bo'ladi. Bunga tarixda

misollar juda ko'p. A.Navoiy onasidan-shoir, Eynshteyn-fizik, Ulug'bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo'lib tug'ilmagan albatta. Inson bolasi, agar ijtimoiy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, odamlarga xos sifatlar shakllanmasligi mumkin. Masalan: 1920 yili hindistonlik doktor Sing Kalkuttaning janubiy-Qarbidagi Midnapur shahri yaqinida bo'ri uyasidan ikkita bo'ri bolasi bilan ikkita qizchani topib olgan. Ularning biri 7-8 yoshda, ikkinchisi 2 yoshlar chamasida edi. Amala (kichigi) bir yildan so'ng vafot etdi. Kamola esa 1930 yilgacha yashadi. Bunga yana bir misol qilib, "Maugli" multfilmini ham misol qilib keltirsak bo'ladi. Odob, axloq, xulqiy sifatlar- shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishga ta'sir etadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

### **Ta'lim-tarbiyaning ta'siri**

Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Inson kamolotida ta'lim-tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Chunki:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida kishi organizmining o'sishi va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan narsalarni o'rganib oladi. Masalan, tilni odamlarning ta'sirida o'rganib olish mumkin. Lekin o'qish, yozishni maxsus ta'lim orqali o'rganadi.
2. Ta'lim-tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklari ham kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. (ko'r, kar, soqov).
3. Ta'lim-tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz beradigan kamchiliklarini ham tugatish mumkin. (Bolalarning karta o'ynashi, so'kish, chekishi).
4. Ta'lim-tarbiya natijasida bolada bilimlar, ko'nikma va masalalar hosil bo'libgina qolmay, balki dunyo qarash ham shakllanadi, kamolotga yetib boradi. Bilmlarning egallanishi uning jismoniy va ma'naviy jihatdan o'sishiga yordam beradi. Masalan, Sarimsoqov 29 yoshida akademik, N. I. Lobachevskiy 14 yoshida Qozon universitetiga o'qishga kirgan, 23 yoshida

professor darajasiga erishgan. O‘zbek olimlaridan Shavkat Alimov, Shavkat Ayupov, va Rahim Hayitovlar ham shu yoshlarda professorlik nasib etgan.

### **Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari**

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb nomlanadi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta‘lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta‘siri kuchli bo‘ladi. Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi.

#### **Yosh davrlari va ularning psixologik xususiyatlari:**

- 1. Go‘daklik davri (0-3 yosh).** Asosiy faoliyat turi: hissiy aloqa va harakat, bola atrofdagi odamlar bilan emotsional aloqalar o‘rnatadi, nutq, idrok, diqqatning dastlabki shakllari rivojlanadi va ona bilan bog‘lanish hissi kuchli bo‘ladi.
- 2. Ilk bolalik davri (3-6 yosh).** Asosiy faoliyati o‘yin hisoblanadi. Tasavvur, xayol, ijodkorlik rivojlanadi, mustaqillikka intilish, “men” hissi shakllanadi va axloqiy me‘yorlarni o‘zlashtirish jarayoni boshlanadi.
- 3. Maktabgacha va kichik maktab yoshi (6-10 yosh).** Asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. Bu davrda diqqat, xotira, tafakkur faol rivojlanadi, o‘qituvchi - muhim shaxs sifatida qabul qilinadi, ijtimoiy me‘yorlarni tushunish va jamoaga kirishish shakllanadi.
- 4. O‘smirlik davri (11-15 yosh).** Jadal jismoniy o‘sish va gormonal o‘zgarishlar ro‘y beradi, “Men kimman?” degan savol paydo bo‘ladi va o‘zini anglash jarayoni ortadi, mustaqillikka intilish, emotsional beqarorlik kuzatiladi, do‘stlar va tengdoshlarning ta‘siri kuchayadi.
- 5. O‘spirinlik davri (15-18 yosh).** Kasb tanlash, hayotiy maqsadlarni belgilash davri va o‘z “Men” konsepsiyasi shakllanadi, bundan tashqari



tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish rivojlanadi, shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllanadi.

**6. Yetuklik davri (20-60 yosh).** Mehnat faoliyati, oilaviy hayot, ijtimoiy mavqe barqarorlashib, mas'uliyat hissi kuchayadi, hayotiy tajriba ortadi va ijtimoiy faoliyatda barqarorlik kuzatiladi.

**7. Keksalik davri (60 yoshdan keyin).** Jismoniy kuch pasayadi, lekin hayotiy tajriba boy bo'ladi, o'tgan hayotni tahlil qilish, o'z faoliyatini baholash jarayoni kechadi, ruhiy barqarorlik, donolik, naslga g'amxo'rlik xususiyatlari kuchayadi.

### **Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:**

1. Individ va individuallik farqi nimada deb o'ylaysiz?
2. Ijtimoiylashuv va ijtimoiylashtirish tushunchalariga ta'rif bering.
3. Ijtimoiylashuvning umumiy mexanizmlari nechta?
4. Bixeviorizm nazariyasi asoschisi kim? U qaysi oqim tarafdori?
5. Pragmatizm otaxoni va uning hozirgi davomchisi kim?
6. irsiyat shaxsning shakllanishida qanday rol o'ynaydi?
7. muhit shaxsning shakllanishida qanday rol o'ynaydi?
8. shaxs shakllanishida ta'lim-tarbiya qanday rol o'ynaydi?
9. O'spirinlik davrining xususiyatlarini sanab ko'rsating? Qaysi yosh davrlarida mehnat faoliyati, oilaviy hayot, ijtimoiy mavqe barqarorlashib mas'uliyat hissi kuchayadi va hayotiy tajriba ortib ijtimoiy faoliyatda barqarorlik kuzatiladi?



Ushbu suratlarda berilgan shaxslar shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi qanday omillarni o'rganishgan?

<https://arxiv.uz.yunagogika>

<https://library.ziyonet.uz.yunagogika>

#### **4-mavzu. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tatqiq etishning ilmiy-pedagogik metodlari.**

##### **Reja:**

1. Yoshlar ta'lim-tarbiyasining maqsad va vazifalari
2. Ilmiy-pedagogik tatqiqot metodlari tushunchasi va ularning vazifalari
3. Yoshlar ta'lim-tarbiyasini o'rganishda qo'llaniladigan nazariy metodlar
4. Pedagogik tatqiqotda statistik va zamonaviy metodlardan foydalanish

**Tayanch so'z va iboralar:** Pedagogik tadqiqot, ilmiy metod, empirik metod, nazariy metodlar, kuzatish (observatoriya), so'rovnoma (anketa), suhbat(intervyu), eksperiment, diagnostika, tahlil va sintez, taqqoslash, model yaratish, pedagogik jarayon, ta'lim -tarbiya muammolari, yoshlarning ijtimoiylashuvi, psixologik-pedagogik yondashuv, innovatsion metodlar, monitoring va baholash, pedagogik tajriba, natijalarni tahlil qilish, shaxs rivojlanishi, tarbiyaviy faoliyat samaradorligi, metodologik asoslar, ta'lim sifati.

#### **Yoshlar ta'lim -tarbiyasining dolzarbligi va muammolar mohiyati**

Bugungi kunda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilish va yechimlarini ishlab

chiqish — bu pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biridir. Ta'lim-tarbiya tizimida yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-pedagogik jihatdan bir qancha tadqiqotlar va tashabbuslar amalga oshirilgan. UNICEF, Yuksalish harakati va O'zbekistondagi Yoshlar Ittifoqi hamkorligida "Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects" deb nomlangan tadqiqot e'lon qilindi. Unda yoshlarning ta'limga kirish, bandlikka kirish va raqamli ko'nikmalar masalalari tahlil qilingan. Institute for Research of Youth Problems and Training Prospective Personnel (O'zbekiston) yoshlar masalalari bo'yicha ilmiy-analitik tadqiqotlar yuritadi. "Ijtimoiy-pedagogik hamkorlik: oila, mahalla va ta'lim muassasalari" yo'nalishida ilmiy maqolalar chop etilgan. Masalan: Mechanisms of Education of Young People in the New Uzbekistan in Socio-Pedagogical Cooperation of "Family, Neighborhood and Educational Institutions". O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimining ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilgan. Masalan: O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimining ma'naviy va ijtimoiy ahamiyati. Davlat tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishga oid strategik qarorlar qabul qilingan.<sup>10</sup> Masalan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni №8111 yoshlar ilm-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullashini qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan. <sup>11</sup> Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini aniqlash va yechimini topish yo'lida qo'llaniladigan pedagogik tadqiqot metodlari, ularning asosiy turlari, bosqichlari va amaliy jihatlari muhokama qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi tegishli sohada ijobiy natijalarga olib kelishi uchun metodlar to'g'ri tanlanishi, mos qo'llanilishi va tahlil jihatdan mustahkam bo'lishi lozim. Masalan, UCL ta'lim-tadqiqot hujjatlarida pedagogik tadqiqot — o'qitish praktikasi ustida sistematik, dalillarga asoslangan o'rganish deb ta'riflanadi. Shunday ekan, afzal metodlarning pedagogik ma'nosi va qo'llanishi bilan tanishamiz. 1. Pedagogik tadqiqot metodlarining turlari. Pedagogik tadqiqot metodlari turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Quyida eng keng tarqalgan klassifikatsiya keltiriladi.

1. **Nazariy metodlar** — muammoni ilmiy asosda, adabiyotlar, konsepsiyalar, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili orqali o'rganishdir.

---

<sup>10</sup> <https://www.unicef.org/education>

<sup>11</sup> <https://lex.uz>

**Adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish** — muayyan yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq ilmiy manbalarni, amaliy tajribalarni tadqiq qilish.

**Tahlil va sintez** — masalani tarkibiy jihatdan ajratish, ularni yagona tizimga birlashtirish.

**Qiyosiy tahlil** — turli davrlar, hududlar, yosh guruhleri yoki ta’lim tizimlarini solishtirish.

**Model yaratish** — yoshlar tarbiyasiga oid samarali model, yondashuv ishlab chiqish.

Shu bilan birga, nazariy metodlarni qo‘llash orqali muammoning omillari, qonuniyatlari aniqlanadi.

**2. Empirik (tajribaviy) metodlar.** Empirik metodlar — bevosita amaliy muhitda ma’lumot yig‘ish, tajriba o‘tkazish, kuzatish, so‘rovnoma va intervyular orqali muammoni aniqlash.

**Asosiy turlari:**



**1.3 Statistik va matematik metodlar.** Bu metodlar empirik ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va ishonchliligini aniqlashga qaratilgan:

**Foizli tahlil** — anketa natijalarini foizlarda ifodalash.

**Diagramma, grafiklar** — ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish.

**Korrelyatsion tahlil** — o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorligini aniqlash.

**O'rtacha qiymat, dispersiya** — natijalarni solishtirish.

Zamonaviy ta'lim-tadqiqot metodologiyalarida ushbu statistik yondashuvlar kuchli o'rin egallaydi. Masalan, "Research Methods in Education" sohasida oxirgi-yillarda metodologik tadqiqotlar kengaymoqda.

### **Pedagogik tadqiqot metodlari tushunchasi va ularning vazifalari**

Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq etishda metod tanlashda e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlar. Yoshlar (masalan, maktab yoshidagi, o'smir va yoshlik davriga oid) ta'lim-tarbiyasi muammolarini ilmiy tarzda o'rganishda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi: Muammoni aniq belgilash — tadqiqotning yo'nalishi, maqsadi, savol yoki gipotezasi aniqligi muhim. Masalan, siz "o'smir yoshida ta'limga ruhiy munosabatni pasaytiruvchi omillar"ni o'rganmoqchi bo'lsangiz, bu umumiy "ta'lim muammolarini" degan darajadan cheklangan va aniqroq bo'lishi lozim. Nazariy asosning puxta bo'lishi — muammoni oldindan o'rganilgan adabiyotlar orqali kontekstga joylash; ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar bilan bog'lash. Masalan, yoshlar interaktiv metodlardan foydalanish orqali fikrlashini rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar. Metod tanlovining muvofiqligi — metod tanlash tadqiqot savoli va maqsadiga mos bo'lishi lozim. Masalan, agar siz yoshlarning munosabatlarini chuqurroq o'rganmoqchi bo'lsangiz, faqat so'rovnoma emas, balki suhbat yoki fokus-guruh usuli ham qo'shilishi mumkin. Etika va ishtirokchilarning huquqlari — ayniqsa yoshlar bilan ishlashda, ma'lumot yig'ishda rozilik, maxfiylik masalalari e'tiborga olinishi kerak. Ma'lumotlarni tahlil va umumlashtirish — empirik ma'lumotlar to'plangach, statistik yoki mazmuniy tahlil orqali xulosalar chiqariladi va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni tarqatish va amaliy qo'llanishi — tadqiqot natijalari faqat akademik darajada qolmasdan, o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim tashkilotlari uchun amaliy tavsiyalar shaklida bo'lishi muhim.

## Tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:

1. Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar
2. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari
3. Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar – o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari hisoblanadi. Bularga hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik, suhbat, nasihat, ko'rsatma, o'git, namuna, munozaralar kiradi. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish(mashq) metodlari – muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil etish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Bular: mashq, ijtimoiy fikr, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq- shular jumlasidandir. Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari - tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni to'g'irlash yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish, tanbeh berish va uyaltirish kabilar kiradi. 12

### **Yoshlar ta'lim-tarbiyasini o'rganishda qo'llaniladigan nazariy metodlar**

**Tadqiqot jarayonining bosqichlari.** Quyida yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini o'rganishda qo'llaniladigan umumiy bosqichlar keltiriladi:

---

<sup>12</sup> Xajjayev.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.Toshkent-2017

**Muammoni aniqlash va tadqiqot maqsadini belgilash** — Masalan: “O‘smirlar o‘rtasida maktab motivatsiyasi pasayishi sabablari” degan muammo.

**Nazariy o‘zakatib o‘rganish** — adabiyotlar tahlili, ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan tanishish; kontseptual-model yaratish.

**Metodologiyani tanlash va tadqiqot dizaynini ishlab chiqish** — metodlar, respondentlar, vositalar (anketa, intervyu, kuzatuv) Belgilash.

**Ma’lumot yig‘ish** — so‘rovnomalar, suhbatlar, kuzatish, tajriba o‘tkazish.

**Ma’lumotlarni tahlil qilish** — statistik va mazmuniy tahlil, grafiklar, korrelyatsion tahlil va boshqalar.

**Xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqish** — muammolarni yechish bo‘yicha aniq takliflar.

**Natijalarni tarqatish** — nazariy va amaliy jurnallar, konferensiyalar, maktab va ta’lim muassasalari bilan integratsiya. Mazkur bosqichlar orqali tadqiqot tizimli va puxta o‘tkaziladi.

### **Empirik (tajribaviy) metodlarning o‘rni va ahamiyati**

Yoshlar ta’lim-tarbiyasi muammolarini o‘rganishda qo‘llanilayotgan zamonaviy metod va yondashuvlar. So‘nggi paytlarda yoshlar ta’lim-tarbiyasi kontekstida bir qator yangi metod va yondashuvlar ko‘paygan. Quyida ularning ayrimlari keltiriladi: Masalan, yoshlar fikrlashini rivojlantirish maqsadida interaktiv metodlardan foydalanish tadqiq etilgan. Ta’lim-tadqiqot metodologiyasi sohasida “Research Methods in Education” mavzusida yangi tadqiqotlar paydo bo‘lmoqda, masalan, 2025 yil noyabrida chop etilgan maqolalardan biri — “Development of a twenty-first century skills curriculum through the flipped learning approach”. Texnologiyalar va sun‘iy intellekt (masalan, katta til modellari) ta’limda qo‘llanilayotgani va buning pedagogik, etik muammolar yaratayotgani tadqiq etilmoqda. Yoshlar tadqiqot jarayoniga faol jalb qilinadigan “Youth-Led Participatory Action Research (YPAR)” metodi — tadqiqotda nafaqat malaka orttirish, balki yoshlarning ovozini eshitish va amaliy natijaga olib kelish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Bu

metodlar zamonaviy ta'lim muammolarini ilg'or usullar bilan o'rganishga imkon beradi.

### **Pedagogik tadqiqotda statistik va zamonaviy metodlardan foydalanish**

Muammolar va yechimlar. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi sohasida bir qator muammolar mavjud: Motivatsiyaning pasayishi, o'quv faoliyatiga qiziqishning kamayishi. O'z-o'zini boshqarish qobiliyatining yetishmasligi, ijtimoiy va axloqiy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan aspektlar. Texnologik muhitga moslashish, axborot maydonining kengayishi sababli yoshlarning diqqatini boshqarishdagi qiyinchiliklar. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy metodlar yetarlicha qo'llanilmasligi yoki pedagoglar metod tayyorlik darajasi pastligi. Aniqlangan muammolarni tadqiq etishda yuqorida ko'rsatilgan metodlar yordamida tahlil qilib, quyidagi yechimlar taklif qilinishi mumkin: Empirik tadqiqotlar orqali aniq sabablarni aniqlash va shunga mos intervensiyalar ishlab chiqish. O'qituvchilar va tarbiyachilar malakasini oshirish, zamonaviy metod va texnologiyalar bilan tanishtirish. Yoshlar ishtirokida tadqiqotlar o'tkazish va ularni faollashtirish (masalan, YPAR yondashuvi) Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va ta'lim-tarbiya faoliyatida natijalarni monitoring qilish.<sup>13</sup>

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Tarbiya tushunchasiga ta'rif bering
2. Hozirgi vaqtda tarbiya metodlari nechiga bo'linadi?
3. Yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi muammolar nega pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi?
4. Nazariy va empiric metodlar o'rtasigi farq nimada?
5. Pedagogic tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish qanday yangi imkoniyatlar yaratadi?



#### **Krossword**

1. Tadqiqot ishtirokchilarining fikrini yozma savollar orqali o'rganish metodi.
2. Pedagogik jarayonni bevosita kuzatish orqali ma'lumot to'plash.
3. Yangi metod yoki vositani sinov tariqasida qo'llab, natijani o'lchash.
- 4.

---

<sup>13</sup> Wikipedia ba'zasidan olingan ma'lumot

Ma'lumotlarni o'rganish, qismlarga ajratish va xulosaga kelish jarayoni. 5. O'rganilayotgan pedagogik jarayon yoki hodisaning soddalashtirilgan namunasi. 6. Tadqiqot ishtirokchisi bilan og'zaki muloqot orqali chuqur ma'lumot olish metodi. 7. Tadqiqotda olingan raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish usuli



<https://www.unesco.org/en/education>

<https://eric.ed.gov>

## **5-mavzu. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni, tuzilmasi va funksiyalari**

### **Reja:**

1. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyati
2. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni
3. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat tuzilmasi
4. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy funksiyalari
5. Yoshlar bilan ishlashda qo'llanadigan ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar

**Tayanch soʻz va iboralar:** yoshlar, tarbiya, ijtimoiylashish, mazmun, tuzilma, funksiya, pedagogic faoliyat, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik.

### **Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyati**

Yoshlar tarbiyasi – jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy va madaniy rivojida eng muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat esa yoshlarning ijtimoiy muhitda to'g'ri shakllanishi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, sog'lom dunyoqarashga ega bo'lishini ta'minlaydigan maqsadli pedagogik jarayondir. Ijtimoiy pedagogika yoshlarni ijtimoiylashuv jarayonida ko'maklashadi. Bu jarayon shaxsning jamiyatga moslashishi, undagi qoidalarga amal qilishi, ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlanishini nazarda tutadi. Demak, ijtimoiy-pedagogik faoliyat – bu tarbiya, ijtimoiy himoya, psixologik qo'llab-quvvatlash, ma'naviy rivojlantirish kabi vazifalarni o'z ichiga olgan kompleks jarayondir.<sup>14</sup>

### **Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni**

Mazmun yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

a) Ma'naviy-axloqiy tarbiy

---

<sup>14</sup> Hasanboeva O., Jabborov R. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019

- Vatanparvarlikni shakllantirish
- Milliy qadriyatlarni singdirish
- Ma'suliyat, halollik, hurmat kabi fazilatlarni rivojlantirish

b) Ijtimoiy faoliyatga tayyorlash

- Jamoada ishlash ko'nikmalari
- Kommunikativ madaniyat
- Muammolarni hal qilish kompetensiyalari

c) Psixologik qo'llab-quvvatlash

- Stressga bardoshlilik
- O'ziga ishonchni oshirish
- Emotsional muvozanatni saqlash<sup>15</sup>

d) Huquqiy tarbiya

- O'z huquq va burchlarini bilish
- Huquqbuzarliklarning oldini olish

e) Ijtimoiy muhofaza


- Ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash
- Kam ta'minlangan, nogironligi bor yoshlar bilan ishlashMazmunning barchasi yoshlarni jamiyatga ijtimoiy moslashgan barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan

**Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning tuzilmasi**

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

---

<sup>15</sup> Qodirov R. Yoshlar ijtimoiylashuviva pedagogik qo'llab-quvvatlash. – Toshkent,2021



## **Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy funksiyalari**

**1) Tarbiyaviy funksiya:** Axloqiy sifatlar, madaniy xulq, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi.

**2) Ijtimoiylashuv funksiyasi:** Yoshlarning jamiyat talablariga mos ravishda rivojlanishiga yordam beradi.

**3) Himoya funksiyasi:** huquqiy himoya, psixologik himoya, ijtimoiy muammolarni yumshatish

**4) Tashkiliy funksiya:** Tarbiyaviy tadbirlar, treninglar, loyihalarni tashkil etish.

**5) Diagnostik funksiya:** Yoshlarning qiziqishlari, qiyinchiliklari, shaxsiy xususiyatlarini aniqlash.

**6) Konsultativ funksiya:** Ota-ona, talabalar va o'qituvchilarga pedagogik maslahatlar berish.

**7) Profilaktik funksiya:** Noto'g'ri xulq, qarovsiz qolish, huquqbuzarlik, stress holatlarining oldini olish.<sup>16</sup>

### **Yoshlar bilan ishlashda qo'llanadigan ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar**

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir yoshning individualligini inobatga olish.

2. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – amaliy topshiriqlar orqali tarbiyalash.

3. Hamkorlik pedagogikasi– oila, maktab va jamoat bilan hamkorlik.

4. Inklyuziv yondashuv – nogironligi bor va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlash.

---

<sup>16</sup> G'oziyev E. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2020

5. Madaniy-tarixiy yondashuv – milliy qadriyatlar, tarixiy meros asosida tarbiya.<sup>17</sup>

**Bu boroda birqancha tamoyillar ham mavjud:** 1. Insonparvarlik tamoyili. Yoshlarni hurmat qilish, ularning sha’ni va qadr-qimmatini e’tirof etish, mehr va ishonch asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish.

2. Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili. Har bir yoshning xarakteri, ehtiyoji, qiziqishi va shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish. “Hamma uchun bir xil” emas, “har bir bola uchun alohida” tamoyili.

3. Ijtimoiy adolat va tenglik tamoyili. Yoshlarning ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, imkoniyati turlicha bo‘lsa ham teng sharoit yaratish. Inklyuziv yondashuvni ham o‘z ichiga oladi.

4. Hamkorlik va interaktivlik tamoyili. Oila – maktab – jamoatchilik o‘rtasidagi uzviy hamkorlik. Tarbiya jarayoniga ota-ona, mahalla, pedagog, psixolog, ijtimoiy ishchi va jamoani jalb etish.

5. Faollik va mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash tamoyili. Yoshlarni faol, tashabbuskor, fikrlovchi bo‘lishga undash; ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish.

6. Individual va differensial yondashuv tamoyili. Yoshlar orasidagi qobiliyat, rivojlanish va xarakter farqlarini hisobga olib, mos tarbiyaviy ishlarni rejalash.

7. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish tamoyili. Odob-axloq, milliy an’analarga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalariga tayangan holda tarbiya berish.

8. Komplekslik tamoyili. Ma’naviy, jismoniy, huquqiy, estetik, ekologik tarbiya kabi yo‘nalishlarning barchasini uyg‘un holda olib borish.

---


<sup>17</sup> Zamonaviy ilmiy maqolalar( Google Scholar va ResearchGate ochiq maqolalar asosida umumlashtirilgan g‘oyalar).

9. Uzluksizlik tamoyili. Tarbiyaviy jarayon bolalikdan yoshlikgacha, maktabdan jamiyatgacha davom etishi; monitoring va tahlil bilan muntazam davom ettirilishi.

10. Ochiqlik va muloqot tamoyili. Yoshlar bilan erkin, samimiy va ishonchli suhbatlar olib borish, ularni o‘z fikrini bemalol ayta oladigan shaxs sifatida ko‘rish. Quyida berilgan tamoyillar, funksiyalarning barchasi yoshlar tarbiyasida muhim sanaladi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy mohiyati nimadan iborat?
2. Ijtimoiylashuv jarayoni qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi va u yoshlar tarbiyasida qanday ahamiyatga ega?
3. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini sanab bering.
4. Yoshlar bilan ishlashda psixologik qo‘llab-quvvatlash nima uchun muhim hisoblanadi?
5. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat tuzilmasining asosiy elementlarini (maqsad, vazifa, subyekt, ob’ekt, vosita, natija) izohlang.
6. Ijtimoiy pedagogning himoya funksiyasining mazmunini tushuntirib bering.
7. Diagnostik funksiya yoshlar bilan ishlashda qanday vazifani bajaradi?
8. Ijtimoiy pedagogning funksiyalari va vazifalarini venn diagrammasi asosida solishtiring.



[C:\Users\User\Downloads\Telegram Desktop\https\scienceweb.uz\publication\234889](https://scienceweb.uz/publication/234889)

<https://scienceweb.uz/publication/234889>

[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9161](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9161)

<https://scienceweb.uz/publication/126450>

## **6-mavzu. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish**

### **Reja:**

1. Ijtimoiy kompetentlik tushunchasi va uning mazmuni
2. Ijtimoiy kompetentlikning tarkibiy qismlari
3. Ta'lim muassasalari va oilaning ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishdagi hissasi
4. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda samarali metodlar

**Tayanch soʻz va iboralar:** yoshlar, kompetentlik, ijtimoiy, mazmun, metod, rivojlantirish, oila, ta'lim muassasasi, tarkibiy qism

Yunogogik fanida yosh davri shaxsning ijtimoiy shakllanishi uchun eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda yoshlar oʻzlarining ijtimoiy rollarini anglash, jamiyatga moslashish va shaxsiy koʻnikmalarini rivojlantirishga tayyorlanadi. Shu sababli, ta'lim tizimi va tarbiya jarayonida ijtimoiy kompetentlikning shakllanishiga alohida eʼtibor qaratish lozim. Ijtimoiy kompetentlik nafaqat muloqot qilish koʻnikmalarini, balki boshqalarning fikrini tushunish, muammolarni birgalikda hal qilish va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyatlarini ham oʻz ichiga oladi. Yoshlar orasida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati, uning rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillar va samarali metodlarni oʻrganishga qaratilgan.

**Ijtimoiy kompetentlik** – bu shaxsning jamiyatda oʻz oʻrnini bilish, boshqalar bilan faol munosabatlarni oʻrnatish va samarali muloqot qilish qobiliyatidir.

Ijtimoiy kompetentlik - bu ijtimoiy munosabatlarda samarali harakat qilish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatidir. Bu insonning boshqalar bilan muloqot qilish, jamoada ishlash, turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashish va ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

### **Ijtimoiy kompetentlikning asosiy jihatlari:**

**Hamkorlik:** Kasbiy faoliyatda hamkasblar bilan samarali ishlash va hamkorlik qilish qobiliyati.

**Muloqot:** Turli sub'ektlar bilan ochiq va samarali muloqotga kirisha olish.

**Ijtimoiy mas'uliyat:** O'z harakatlarining jamiyatga ta'sirini tushunish va mas'uliyatni his qilish.

**Moslashuvchanlik:** Kutilmagan vaziyatlarga tez moslashish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati.

### **Ijtimoiy kompetentlikning asosiy omillari quyidagilar:**

**Ta'lim muassasalari:** Maktab va universitetlar yoshlarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida jamiyatga integratsiyalashish, guruhda ishlash va muloqot qilish qobiliyatlari rivojlanadi. O'qituvchilar yoshlarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion o'quv metodlari va faol o'qitish usullaridan foydalanishlari kerak. Prezidentimizning maktab ta'limini taraqqiy ettirish bilan bog'liq g'oya va fikrlari dunyo ilmiy jamoatchiligining bugungi g'oyalari bilan bevosita uyg'un. Zero, har qanday davlat va jamiyatni yuksaltirishda sifatli ta'limni kafolatlash va amalda ta'minlash, inson kapitaliga alohida e'tibor qaratish har tomonlama o'zini oqlaydi. Buni Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya kabi mamlakatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ular aynan sifatli ta'lim va inson kapitaliga yetarli e'tibor qaratgani bois, nafaqat tang vaziyatdan chiqishni uddaladi, balki dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan mustahkam o'rin egalladi. Har qanday davlat va jamiyat rivojlanishi uchun kuch-quvvatni tarbiyali, yuksak axloqli, mas'uliyatli, rostgo'y, irodali, mehnatkash, vatanparvar hamda erkin fikrli, bilimli, intellektual salohiyatli fuqarolar, aniqrog'i, yoshlardan oladi. Yangi O'zbekiston ham bundan

mustasno emas. Yurtboshimiz maktab ta'limini rivojlantirish faqat Xalq ta'limi vazirligining emas, butun jamiyatning ishi ekani va unga hamma birdek mas'ulligini kuyunchaklik bilan ta'kidlagani bejiz emas. Ushbu masala bo'yicha alohida komissiya tuzilib, unga davlat rahbarining o'zi rais bo'lishi yoxud joylarda hokimlar mas'ul etib belgilanishi taklif etilganida ham katta mantiq bor.

**Oilaviy muhit:** Oila ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda asosiy bazadir. Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot va ijtimoiy tajriba, yoshlarning o'z-o'zini anglashiga va boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishiga ta'sir qiladi. Oila muhitida ijtimoiy qadriyatlar va an'analarni o'rgatish yoshlarning muomala madaniyatini shakllantiradi.

**Jamoat tashkilotlari:** Yoshlar tashkilotlari va ijtimoiy guruhlar yoshlarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu tashkilotlar yoshlarni ijtimoiy masalalar bilan tanishtirish, ko'ngilli ishlarda ishtirok etish, seminar va treninglarda qatnashish imkoniyatini beradi. Bu orqali yoshlar o'z fikrlarini bildirish va muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

**Madaniyat va an'ana:** Mahalliy madaniyat va an'analar yoshlarning ijtimoiy kompetentligiga ta'sir qiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy normalar va qadriyatlar, yoshlarning ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi. Madaniy tadbirlar, festivallar va an'anaviy bayramlar yoshlarning bir-biri bilan muloqot qilishiga yordam beradi.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

**Amaliy mashg'ulotlar va treninglar:** Yoshlarni muloqot ko'nikmalariga o'rgatish maqsadida rolli o'yinlar, jamoaviy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Kuzatuv va intervyu: O'quvchilar va yoshlar bilan individual va guruh suhbatlari orqali ularning ijtimoiy ko'nikmalari o'rganiladi. Eksperimentlar va tajriba almashinuvi: Ijtimoiy faoliyatda qatnashish orqali yoshlarning tajribalari boyitiladi. Masalan, volontyorlik yoki ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish.

**Nazariy va amaliy ko‘nikmalarni sintez qilish:** Ta’lim jarayonida ijtimoiy mavzularni o‘rganish va ular asosida amaliy mashqlarni bajartirishga e’tibor qaratiladi. So‘rovnoma va tahlil: Yoshlar orasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, ularning ijtimoiy kompetentlik darajasi o‘lchanadi.

**Guruh faoliyatlari:** Guruhda ishlash orqali yoshlar bir-birlariga yordam berish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilishni o‘rganadilar. Bu usul ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Treninglar va seminarlar:** Treninglar ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uchun samarali vositadir. Ular muloqot, konfliktlarni hal qilish, o‘z-o‘zini anglash va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**Ko‘ngilli ishlar:** Yoshlarni ko‘ngilli faoliyatlarga jalb qilish, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi. Ko‘ngilli ishlar orqali yoshlar ijtimoiy muammolar bilan tanishadilar va o‘zlarini jamiyatda foydali fuqarolar sifatida his qiladilar.

**Mentorlik dasturlari:** Mentorlik dasturlari orqali tajribali shaxslar yoshlarni qo‘llab-quvvatlab, ularga ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda yordam berishadi. Mentorlar yoshlar uchun maslahatchi bo‘lib, ularni muammolarni hal qilishda yo‘l ko‘rsatishadi.

### **O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ijtimoiy kompetentlikning yoshlar hayotiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatdi:**

**Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish:** Treninglar va mashg‘ulotlar orqali yoshlar o‘z fikrlarini aniq ifoda etishni, tinglash va tushunishni o‘rganadilar.

**Ijtimoiy moslashuvni yaxshilash:** Yangi jamoalarga qo‘shilish va guruhiy faoliyatda ishtirok etish orqali yoshlar tezroq moslashish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

**Muammolarni hal qilish qobiliyati:** Jamoaviy faoliyatda qatnashish yoshlarni muammolarni birgalikda hal qilishga o‘rgatadi.

**Liderlik sifatlarini shakllantirish:** Yoshlar ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etib, liderlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Yunogogik yoshlar orasida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish ta’lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaliy mashg‘ulotlar va ijtimoiy faoliyat yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish ularni jamoa bilan ishlash, mas’uliyatni his qilish va boshqalarga yordam berishga o‘rgatadi. Biroq, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda ayrim qiyinchiliklar ham uchraydi. Masalan, ba’zi yoshlar yangi jamoaga qo‘shilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi yoki ijtimoiy faollikka motivatsiyasi yetishmaydi. Shuningdek, oilaviy va ijtimoiy sharoitlar ham yoshlarning ijtimoiy kompetentlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ta’lim jarayonida individual yondashuvni qo‘llash va psixologik yordam ko‘rsatish muhim. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida ijtimoiy kompetentlikning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o‘zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, ammo boshqa tomondan, real hayotdagi muloqot ko‘nikmalari rivojlanishi cheklanishi mumkin. Shu sababli, raqamli va an’anaviy ijtimoiy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish zarur.

**Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish yoshlar uchun bir qator ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Bular:**

**O‘z-o‘zini anglash:** Ijtimoiy kompetentlik yoshlarning o‘zlarini qanday anglashlariga yordam beradi. O‘zini anglash, yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy vaziyatlarda qulaylik yaratadi.

**Muloqot ko‘nikmalari:** Yoshlar muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirib, boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lishni o‘rganadilar. Bu esa ularning shaxsiy va professional hayotida muhim rol o‘ynaydi.

**Jamiyatda integratsiya:** Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish yoshlarning jamiyatga integratsiyasini osonlashtiradi. Ular jamiyatda faol ishtirok etib, o‘z fikrlarini bildirish va o‘z ijtimoiy ro‘lini anglash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

**Muammolarni hal qilish qobiliyati:** Yoshlar muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirib, kelajakda faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida jamiyatda o'z o'rnini topadilar. Yoshlar ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish orqali shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ijtimoiy kompetentlik yoshlarning jamiyatga moslashishi, mas'uliyatni his qilishi va muloqotda muvaffaqiyatli bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning samarali metodlari tahlil qilindi va ular amaliyotda qanday qo'llanishi ko'rsatildi. Kelgusida bu borada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish va yangi metodlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlik qaysi omillar ta'sirida shakllanadi?
2. Oila ijtimoiy kompetentlikning qaysi jihatlariga ta'sir ko'rsatadi?
3. Ta'lim muassasalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uchun qanday faoliyatlar amalga oshiriladi?
4. Tengdoshlar guruhi yoshlarning ijtimoiy xulqiga qanday ta'sir qiladi?
5. Yoshlar uchun ijtimoiy kompetentlik nega muhim?
6. Topshiriq: Yoshlarda shakllanishi kerak bo'lgan ijtimoiy kompetentlik ko'nikmalarini "Shaxsiy ko'nikmalar" va "Jamoaviy ko'nikmalar"ga ajrating.

<https://scholar.google.com>

<https://www.ziyonet.uz/>



## **7-mavzu. Yoshlarni ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi**

### **Reja:**

1. Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining mazmuni va asosiy yo'nalishlari.
2. Yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik innovatika: tushuncha va zamonaviy yondashuvlar.
3. Loyihaviy faoliyatning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati.
4. Yoshlarni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy hamkorlik va istiqbolli yo'nalishlar.

**Tayanch iboralar:** Yoshlar siyosati, Ijtimoiy-pedagogik yordam, Yoshlar bilan ishlash, Qo'llab-quvvatlash tizimi, Ijtimoiy himoya, Innovatsion yondashuvlar, Pedagogik innovatika, Loyihaviy faoliyat, Kasbiy yo'naltirish, Ijtimoiy moslashuv Profilaktika ishlari, Pedagogik texnologiyalar, Ijtimoiy xizmatlar, Yoshlar markazlari, Ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlar

### **Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining mazmuni va asosiy yo'nalishlari.**

Ma'lumki, har qanday davlat va jamiyatning istiqbolli sivilizatsiyasi uning ta'lim-tarbiya maqomiga, yangicha ta'lim tizimi tarkibi va mazmuni, teran ma'rif madaniyatiga bog'liq. Zotan, yuksak ta'lim-tarbiya darajasiga jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta'minlagan, jahondagi nufuzini to'lagan yagona omil. Zero, yurtning porloq istiqbolini, uning nomini keng yoyish, yurtni hududlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlod kadrlarni, malakali qilib tarbiyalashga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasining "Inson qadri uchun" g'oyasini hozirgi rivojlanishning bosh tajribasi bo'lgan "Inson-jamiyat davlat" degan chuqur joyni konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, ushbu ta'moyil O'zbekiston xalqining barcha qatlamlari uchun birdek taaluqlidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga yoshlarga 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan kirib, bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning soni 9,6 milliondan oshmoqda, ya'ni rahbariyatining 30 %ga yaqinini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 78-79-quvvati yoshlarga oid alohida normalar bilan to‘ldirildi. Unga: -davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy yordam hamda imkoniyatlar uchun, hujjat ta’lim olishiga, sog‘ joy saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dan olishlarini amalga oshirish uchun sharti belgilangan norma sifatida kiritildi. Yoshlarni har tomonlamayuksak bilimni bo‘lishi uchun ularga tegishli, shart-sharoitlarni yaratib berilmoqda . Kerakli bilim bilan birga, ularning yangi ijtimoiy sharoitlarda yashashlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy kompetentsiyalarni, ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirishda pedagogika va psixologiyalarining fan yutuqlari, ushbu fanlarni o‘qitishdagi zamonaviy korxonalar muhim kasb etadi. Yoshlarda zamonaviy ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirish pedagogika va psixologiya fanlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan bir qator metodologik tashqi ko‘rinishni olish taqozo etadi.


Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash deganda yoshlar (o‘smirlar va katta yoshdagi) ijtimoiy hayotga, o‘qishga, kasbiy faoliyatga va jamiyatga moslashuvi uchun pedagogik hamda ijtimoiy yo‘nalishdagi yordam, yo‘nalish, uslub va tizim tushuniladi. Bu yordamning maqsadi yoshlarni ijobiy rivojlantirish, muammolarini aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, ularning ijtimoiy faolligini oshirishdir.

Mazkur yondashuvda “pedagogik” — tarbiya, o‘qitish, yo‘naltirish elementlari; “ijtimoiy” esa yoshlar yashab turgan muhit, oilasi, mahallasi, maktabi va jamiyat bilan bo‘lgan aloqasi — ularni qo‘llab-quvvatlashni anglatadi.

Bu — yoshlar bilan ishlash jarayonida an’anaviy metod va uslublarni yangilash, zamonaviy texnologiyalar, loyihaviy yondashuvlar, interaktiv treninglar, onlayn platformalar, mentorlik sistemalari.

## **1-rasm: Yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik innovatika tushunchasi.**

Yoshlar bilan ishlashda loyihaviy faoliyat — belgilangan maqsadga, natijaga yo‘naltirilgan vaqtinchalik (va ehtimol takrorlanadigan) tashabbuslar majmuasi. Masalan, yoshlar uchun tadbirlar, jamiyat bilan aloqalashuvchi klublar, onlayn kampaniyalar, startup-tashabbuslar, ijtimoiy innovatsiya loyihalari. Bu faoliyat tashkil etiladi, bajariladi, monitoring qilinadi va baholanadi.



### **1. Maqsad va vazifalar**

- Yoshlarning ijtimoiy-psixologik, pedagogik, kasbiy va madaniy rivojlanishini ta'minlash.
- Ularning ijtimoiy faoliyatga jalb qilinishini kuchaytirish.
- Yoshlar orasida zararli odatlarga, ijtimoiy chetlanishga, jamiyatdan tashqariga chiqishga yo'l qo'ymaslik.
- Oilasi, maktabi, mahallasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

### **2. Subyektlar va muhit**

- Yoshlar o'zi.
- Oila va mahalla (mahalla instituti, mahalliy hokimlik), ya'ni yaqin ijtimoiy muhit.

- O‘quv-tarbiyaviy muassasalar (maktab, kollej, oliy ta’lim).
- Mahalliy yoshlar markazlari, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy xizmatlar.
- Davlat va nodavlat sektorning yoshlar siyosati bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlari.

### **3. Tizim bosqichlari**

- Talab va ehtiyojlarni aniqlash: yoshlarning ijtimoiy, pedagogik ehtiyojlari tekshiriladi.
- Rejalashtirish va dasturlash: qo‘llab-quvvatlash dasturi, loyihalar ishlab chiqiladi.
- Amalga oshirish: treninglar, mentorlik, guruh ishlari, ijtimoiy faoliyat tadbirlari.
- Monitoring va baholash: natijalar tahlil qilinadi, taraqqiyot ko‘rsatkichi tekshiriladi.
- Takomillashtirish: feedback asosida metod va usullarga o‘zgarishlar kiritiladi.

### **4. Asosiy tamoyillar**

- Shaxs markazliligi – yoshni markazga qo‘yish, uning ehtiyojlari, potentsiali hisobga olinishi.
- Faollik – yoshlarning o‘zini anglash, o‘z tashabbusini qo‘llab-quvvatlash.
- Hamkorlik – barcha subyektlar o‘rtasida integratsiyalashgan ish.
- Holistik yondashuv – yoshning pedagogik, psixologik, ijtimoiy jihatlari birgalikda.
- Innovatsiyani qo‘llash – zamonaviy metod, texnologiyalar va loyihaviy yondashuvlar orqali.
- Natija yo‘naltirilganlik – aniq maqsadlari, ko‘rsatkichlari, baholash mezonlari bilan ishlash.

## **2. Yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik innovatika: tushuncha va zamonaviy yondashuvlar.**

Tez globallashib borayotgan bugungi davr har tomonlama yetuk avlodni voyaga yetkazishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari oldiga bir

qancha talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Mamlakatimizda shaxs manfaatlarini ustuvorligi, uning huquqlarini himoya qilish oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligini takomillashtirish masalalaridan biridir. Binobarin, ta’lim muassasalari, mahalla faollari, oilalar mamlakatimizda yoshlar kamoloti uchun bevosita va bilvosita mas’uldir. Biroq, “Oilada, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlarni tarbiyalash, chekka tuman va mahallalardagi uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g‘oyaviy-ma’rifiy ishlar yuzaki olib borilmoqda, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorchilik harakatlariga noto‘g‘ri qo‘shilish, milliy qadriyatlarga bepisandlik, erta turmush qurish, oila ajralish holatlariga yo‘l qo‘yilmoqda. Shu bilan birga, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar masalasiga ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda, xususan, 2017-yilning 10 oyi davomida 22 ming nafar yoshlar jinoyat sodir etgan. Vazirlar Mahkamasining 371-sonli qarori ijrosi amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, nega ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning davomati hali ham past? Talabalar sababsiz va muntazam ravishda darslarga qatnashmaydi. Buning asosiy sababi 371, 175-sonli qarorlari ijro intizomi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagani aniqlandi. Kasbhunar kolleji pedagoglari birlashtirilgan o‘quvchilarning xonadonlariga, mahalla fuqarolar yig‘inlariga o‘zlari emas, balki o‘quvchilarda saqlanayotgan daftarlarni berib yuborishadi. Natijada o‘quvchilarning o‘zlari daftarga muhr va imzo qo‘yishdi. Bu esa ijro intizomi o‘z vaqtida ta’minlanmasligi, davomatning pastligi, oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligidagi salbiy kamchiliklarga olib kelmoqda.

-Ta’lim muassasalarida ota-onalar yig‘ilishi rejasi ishlab chiqilmagan va pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanmagan. Ota-onalar yig‘ilishi reja asosida tashkil etilmagan.

-Ta’lim muassasalarida yarim yillik yakunida tashkil etilgan ota-onalar yig‘ilishiga guruhdagi o‘ttiz nafar o‘quvchidan 15-20 nafarining ota-onalari keladi. Ular a‘lochi, bilimli o‘quvchilarning ota-onalari hamdir. Ota-onalar yig‘ilishiga malakasi past, bilimi muammoli, oilasi nosog‘lom bolalar kelmayapti.

-Ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash masalasi oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda «yoshlar» tushunchasi keng qo'llanilishiga qaramay, ushbu atamaning yagona universal ta'rifi ishlab chikilmagan. Asosan, adabiyotlarda: «Yoshlar deganda, muayyan yosh xususiyatiga ko'ra boshqalardan ajralib turadigan, ijtimoiy maqomi va ijtimoiy tizim, madaniyat, ijtimoiylashuvning faol sub'ekti, zamonaviy yosh chegaralari asosida aniqlanadigan ijtimoiy-demografik guruh tushunilishi»[2] ta'kidlab o'tilgan. Ushbu ta'rif birinchi navbatda bu tushunchani yosh chegaralari nuqtai-nazaridan baholashni talab qiladi. Bugungi kunga qadar umumiy va funksional yondashuv nuqtai-nazardan «yoshlar» tushunchasining jamiyatning umumiy tizimiga mos keladigan yagona ilmiy ta'rifi yo'q, uning hatto falsafiy mazmun-mohiyati ham yetarli darajada ochib berilmagan. Yoshlik deganda, insonlarning bolalik davridagi hayoti, ko'pincha bolalik va balog'at (yetuklik) davridagi vaqt tushunidadi. Shuningdek, yoshlarga xos bo'lgan tashqi ko'rinish, tezlik, jo'shqinlik, erkinlik va ijodkorlik ruhi kabi xislatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yoshlar

orasida hozirda paydo bo'lgan «uyushmagan yoshlar» ijtimoiy qatlami tushunchasining aniq bir ta'rifi yo'q. Turli fan vakillari o'zlarining tadqiqot yo'nalishidan kelib chiqib bu tushunchaga ta'rif bermoqdalar, lekin bu ta'riflar o'zini to'laqonli ilmiy asosiga ega emas.

**Uyushmagan yoshlar deb** - o'z xatti-harakati bilan davlatga, jamiyatga, oilasiga, shaxslararo va o'zaro munosabatlarda yetarli darajada foydalilik koeffitsientini bermaydigan, umuman hayotga bee'tibor, befarq yoshlarga nisbatan aytiladi.

«Uyushmagan yoshlar» - o'z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyatda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, primitiv, nafaol tarzda samarasiz amalga oshirayotgan, hech qaerda o'qimaydigan, ishlamaydigan yoshlar guruhini anglatadi. Bu toifadagi yoshlar o'z maqsadini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lmaydi. Ularda ijtimoiy faollik, huquqiy, siyosiy ong va madaniyat darajasi past bo'ladi. Uyushmagan yoshlar mamlakatimiz yoshlarining muayyan salmog'ini tashkil etuvchi, o'zining huquqbuzarliklarni sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g'oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj toifasi bo'lib, ular bilan doimiy va tizimli ravishda profilaktik chora- tadbirlarni amalga oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, bu borada keng jamoatchilikning hamkorligiga tayanish, qolaversa, sohaga doir qonunchilikni [2] Begmatov B. B., Xasanov M. B. Yoshlar sotsiologiyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 320 b. zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirish asosida bu toifa yoshlarning sonini kamaytirish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga erishish mumkin.

Uyushmagan yoshlarga nisbatan olib boriladigan madaniy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga erishish va ularda ertangi kunga ishonch hissini tug'dirish maqsadida fikrimcha, quydagi ishlarni amalga oshirish lozim:

**Birinchi**dan, kundan kunga kuchayib borayotgan inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan chora-tadbirlarni jadallik bilan amalga oshirish, ushbu

maqsadda tomorqalarda mahsulot ishlab chiqarish va qoramol sonining kamayib borayotganligi sabablarini chuqur o'rgangan holda qishloq yoshlariga moddiy-texnik yordam berish ko'lamini kengaytirish, marketing tadqiqotlari asosida sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni qaytadan ko'rib chiqish, ko'p ukladli agrar iqtisodiyotni, jumladan, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan kompleks mexanizatsiyalashgan davlat agrosanoat birlashmalarini barpo etish;

**Ikkinchidan**, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan, jumladan un, o'simlik yog'i, kir sovuniga savdo ustamasini cheklash yo'li bilan chakana narx belgilash amaliyotini joriy etish va shu yo'l bilan kishilarning, jumladan uyushmagan yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

**Uchinchidan**, ta'lim va sog'likni saqlash, huquqni muhofaza qilish sohalarida korrupsiyaga qarshi va adolat muhitini yaratish maqsadida boshlangan xatti-harakatlarni kundan-kunga kuchaytirish va mantiqiy yakun topishiga xalqni ishontirish;

**To'rtinchidan**, cheklangan ishlab chiqarish resurslarini viloyatlarning alohida tanlangan tumanida emas, balki barcha qishloq joylarini kompleks rivojlanishiga xizmat qiladigan iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish.

**Beshinchidan**, kollejlarda sharoitini ta'lim sohasidagi yangi vaziyat nuqtai nazaridan o'rganib chiqish va ularning mos keladigan binolarida sanoat korxonalari, jumladan, tikuvchilik, poyafzal, mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarining filiallarini tashkil etish;

**Mavzu yuzasidan amaliy nazorat savollari:**

1. Uyushmagan yoshlar tushunchasi va ularning asosiy toifalari (guruhlari) nimalardan iborat?
2. Uyushmagan yoshlar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarni tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan eng dolzarb 3 ta muammo va ularning yechimlari (vositalari) qaysilar?

3. Uyushmagan yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb qilishning asosiy shakllari va usullarini sanab bering. Ijtimoiy-pedagogik ishning individual va guruhli shakllarining farqini izohlang.
4. O'zbekistonda uyushmagan yoshlar bilan ishlash bo'yicha qabul qilingan asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar (Farmon, Qaror yoki Qonun) va ularning ijtimoiy-pedagogik ishni tashkil etishdagi o'rni nimadan iborat?
5. Uyushmagan yoshlar bilan ishlashda "Mahalla yettiligi" tizimining (yoki "Yoshlar yetakchisi"ning) asosiy vazifalari va uning ijtimoiy-pedagogik ta'sir mexanizmini tahlil qiling.

**Topshiriq.** Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantiruvchi omillar va ularning jamiyatga integratsiyalashuvi yo'llari. Mahalladagi yoshlar yetakchilarining uyushmagan yoshlar bandligini ta'minlashdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyati.

<https://youtu.be/0ZuqOAJ5dUE?si=hXnfvG2A7HFon3HF>

<https://youtu.be/4vzWpZtM6jg?si=RSgmgG9M-74QkqQ>

## **10-mavzu. Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish**

### **Reja:**

1. Yuqori sinf o'quvchilari rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari va ularni o'rganish metodikasi.
2. Yuqori sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishda kasbga yo'naltirish (proforientatsiya) va hayotiy rejalarni tuzish bo'yicha olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishlar.
3. Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy faollikka, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik ishlarning shakl va usullari.
4. Yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida salbiy illatlar (huquqbuzarlik, zararli odatlar) profilaktikasi va ularni oldini olishda ijtimoiy-pedagogning faoliyati.

**Tayanch iboralar:** Ijtimoiy-pedagogik ish, yuqori sinf o‘quvchilari ijtimoiylashuv, kasbga yo‘naltirish, hayotiy o‘zini o‘zi belgilash, fuqarolik pozitsiyasi, Shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik, profilaktik ish, ijtimoiy xavf guruhi:

### **Yuqori sinf o‘quvchilari rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari va ularni o‘rganish metodikasi.**

O‘quvchilar hayotiy qadriyatlar tizimini mustaqil ravishda shakllantiradi. Ular uchun adolat, erkinlik, do‘stlik, vatanparvarlik, moddiy farovonlik kabi tushunchalarning mazmuni aniqlash muhim. Bu davrda ma'naviy-axloqiy did (estetika) ham shakllanadi. Bu davr o‘quvchi shaxsining shakllanishidagi eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlardan hisoblanadi. Yuqori sinf o‘quvchilari rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari 2 ta bo‘lib ular quyidagicha.

#### **Ijtimoiy xususiyatlar:**

- Pedagogik-psixologik xususiyatlar:
- Ijtimoiy xususiyatlar:

**Hayotiy o‘zini o‘zi belgilash:** O‘quvchining asosiy ijtimoiy vazifasi – kelajak kasbini tanlash, ta'lim yo‘nalishini belgilash va hayotiy rejalarni shakllantirish.

**Ijtimoiy mavqeni egallashga intilish:** Ular kattalar jamiyatiga integratsiyalashishga harakat qiladi, huquq va majburiyatlarining oshishini talab qiladi.

**Referent guruhning o‘zgarishi:** Oilaning ta'siri biroz susayib, tengdoshlar guruhining, ijtimoiy tarmoqlardagi do‘stlarining va nufuzli shaxslarning (kumirlarning) ta'siri kuchayadi.

**Fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi:** Jamiyatdagi voqealarga nisbatan shaxsiy fikr va ongli munosabatni bildirishga intilish kuchayadi.

#### **Pedagogik-psixologik xususiyatlar:**

**Aqliy rivojlanishning yuqori bosqichi:** Abstrakt (mavhum) fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, murakkab tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

**O‘z-o‘zini anglash (Refleksiya):** O‘z qobiliyatlarini, xarakterini, kuchli va zaif tomonlarini chuqur tahlil qilishga moyillik kuchayadi. Ideal "Men" va real "Men" o‘rtasidagi tafovutni anglashga urinadi.

**Darsga munosabatning o‘zgarishi:** O‘quv motivatsiyasi o‘zgaradi. Faqatgina kelajakdagi kasbga foydali bo‘lgan fanlarga bo‘lgan qiziqish ortadi, qolganlariga e'tibor susayishi mumkin.

**Mustaqillikka intilish:** O‘z faoliyatini, o‘qishini va bo‘sh vaqtini o‘zi rejalashtirishga, ota-onalar nazoratidan ozod bo‘lishga harakat qiladi.

## 2. Yuqori sinf o‘quvchilarini o‘rganish metodikasi

Ijtimoiy-pedagogik ishni samarali tashkil etish uchun o‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va muammolarini doimiy ravishda o‘rganib borish talab etiladi.

Metodika (Usul)	Maqsadi	Qo‘llash tartibi
So‘rovnoma va Anketalashtirish	O‘quvchilarning qiziqishlarini, kasbiy moyilligini, hayotiy qadriyatlarini va maktab muhitiga bo‘lgan munosabatini ommaviy o‘rganish.	Anonim shaklda, ijtimoiy tarmoqlarda yoki sinfda tashkillashtiriladi. Natijalar statistik tahlil qilinadi.
Individual suhbat (intervyu)	Shaxsiy muammolar, murakkab vaziyatlar yoki kasb tanlashdagi qiyinchiliklarni chuqur o‘rganish.	Ijtimoiy pedagog, psixolog yoki sinf rahbari tomonidan maxsus tayyorlangan savollar asosida o‘tkaziladi.

		O'quvchining ishonchini qozonish muhim.
Test sinovlari	O'quvchining intellektual salohiyatini, shaxs xususiyatlarini (introvertlik/ekstravertlik), kasbga layoqatini va qobiliyatlarini baholash.	Kasbiy moyillik testlari (masalan, Koulman, Golland), IQ testlari va shaxsiy psixodiagnostika testlari qo'llaniladi.
Kuzatuv (Observatsiya)	O'quvchining o'quv va ijtimoiy jarayonlardagi xatti-harakati, tengdoshlari bilan munosabati, faolligi yoki passivligini aniqlash.	Dars jarayonida, tadbirlarda, tanaffus vaqtida tizimli (pedagogik) kuzatuvlar yuritiladi.
Sotsiometriya	Sinfdagi guruhlararo munosabatlarni, liderlarni, do'stlik aloqalarini va "chetlatilgan" (izolyatsiya qilingan) o'quvchilarni aniqlash.	O'quvchilarga ma'lum bir faoliyat uchun sherik tanlash taklif qilinadi (masalan, "Kim bilan birga ishlashni xohlaysiz?"). Natijalar sotsiogramma shaklida tahlil qilinadi.
Hujjatlarni o'rganish	O'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlari, tibbiy xulosalari, xulq-atvori haqidagi ma'lumotlarni o'rganish.	Sinf jurnallari, shaxsiy yig'ma jildlar, tibbiy kartalar va ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijalari tahlil qilinadi.

Bu xususiyatlar va metodikalar yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishning individual yondashuvga asoslanishi, ularning

mustaqillikka intilishini qoʻllab-quvvatlashi va kelajak uchun ongli tanlov qilishiga yordam berishini ta'minlaydi.

Yuqori sinf o'quvchilarini o'rganishda chuqurlashtirilgan metodikalar.

Ijtimoiy pedagog nafaqat muammolarni aniqlashi, balki ularning ildizini ham tahlil qilishi kerak.

Metodik Yondashuv	Maqsadi va Imkoniyatlari	Qanday Amalga Oshiriladi?
Loyihaviy metod (Metod proyektov)	O'quvchining qiziqishlari, ijodiy salohiyati va jamoada ishlash qobiliyatini baholash.	O'quvchilarga ijtimoiy ahamiyatga ega (ekologiya, mahalla muammosi) loyihalarni guruh bo'lib bajarish yuklatiladi. Pedagog ularning ishtirokini kuzatadi.
"Ekspert bahosi" usuli	O'quvchining ma'lum bir sohadagi bilim va ko'nikmalarini turli mutaxassislar (o'qituvchilar, psixolog, ota-ona) fikri asosida baholash.	O'quvchi haqidagi ma'lumotlar turli manbalardan yig'ilib, uning rivojlanish darajasi kompleks tahlil qilinadi.
Pedagogik konsilium	Muayyan o'quvchi (yoki sinf) muammolarini hal qilish uchun bir necha mutaxassisning (psixolog, pedagog, shifokor) hamkorlikda qaror qabul qilishi.	Maktab ma'muriyati, o'qituvchilar va mutaxassislar yig'ilib, o'quvchiga ta'sir o'tkazishning yagona strategiyasini ishlab chiqadi.
"Noodatiy vaziyat" tahlili	O'quvchining hayotiy qiyinchiliklar, axloqiy dilemmalar va nizoli holatlarda o'zini qanday tutishini baholash.	O'quvchilarga shartli yoki real hayotiy vaziyatlar taklif etiladi va ulardan optimal yechim topish so'raladi (Keys-stadi).

Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish faqat tarbiyaviy suhbatlardan iborat bo'lmay, balki o'quvchining individual rivojlanish traektoriyasini aniqlashga va uni kattalar hayotiga ongli ravishda tayyorlashga qaratilgan tizimli va diagnostik faoliyat bo'lishi kerak. Ijtimoiy pedagog bu jarayonda mentor va navigatsiya (yo'naltiruvchi) vazifasini bajaradi.

## **2. Yuqori sinf o'quvchilari shaxsini shakllantirishda kasbga yo'naltirish (proforientatsiya) va hayotiy rejalarni tuzish bo'yicha olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishlar.**

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish muammosiga oid e'lon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ommaviy maktablar tajribasini umumlashtirish asosida o'quvchilarning e'tiborini yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni kasbga yo'naltirishga doir etarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarga alohida qaratish lozim. Jumladan, mintaqa sharoitlarini, milliy an'analarini hisobga olib o'quvchilarni kasblarga uchun ta'lim muassasining kasbga yo'naltirish bo'yicha kompleks tadbirlarini ishlab chiqish, kasbga yo'naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan o'quvchilarning umummehnat va kasbiy tayyorgarligi o'rtasida uzviy aloqadorlikni ta'minlash alohida dolzarblik kasb etadi .

Respublikamizda etarli darajada nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan bu kabi muammolarni hal qilishda mamlakatimiz mintaqa xususiyatlarini, milliy an'analarini va tarixiy tajribasini hisobga olish lozim bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talabalari asosida maktab yoshlariga mehnat tarbiyasi berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yo'naltirish shakl va metodlarini takomillashtirishning yangi yo'llarini qidirishga to'g'ri keladi. Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o'rin tutadi. Bular orasida xalq xo'jaligini rivojlantirish va kad muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog'liq tarzda talabalarning mustaqil mashg'ulotlarida ko'rib chiqishi tavsiya etiladi. Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lgan maktabning roli har qachongidan ko'ra o'sdi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining

mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta`lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir.

Kasbni to`g`ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko`p jihatdan kasbning qanchalik to`g`ri tanlanishiga bog`liq. Kasbni to`g`ri tanlash har bir maktab o`quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo`lishi uchun uning sog`lig`ini, o`zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko`ra ko`proq qaror topadi va namoyon bo`ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo`lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbga zo`r qiziqish bilan qarasa, o`z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o`shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo`ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko`p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g`oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug`ullanayotgan ishini yaxshi ko`rsa, bundan u xursand bo`ladi, qoniqish hosil qiladi, zo`r tashabbus ko`rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o`quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo`lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo`lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo`lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma`lumotli bo`lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma`lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo`lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob`ektiv zaminga ega bo`lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda.

Kasbga yo`naltirish o`quvchilarga politexnik ma`lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog`liqdir. YOsh avlodga mehnatga ijodiy munosabatda bo`lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo`ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o`z o`yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat

harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi. Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga etkazish, bolalarni o'rab turgan va ularga xizmat qilayotgan hamma narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo'llar faqat mehnatdagina —mohir qo'llar||ga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o'rganib bo'lmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur. Umumiy ta`lim maktablarida, zavod va fabrikalarda, o'quv yurtlarida kasbga yo'naltirish ishlarini o'tkazish zaruriyatini turmushning o'zi taqozo etmoqda. Bu narsa qayta qurish yangi marralari yil sayin tobora keng avj oldirilayotgandir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: o'quvchi tanlagan kasb og`zaki tushunchagina bo'lib qolmasligi, o'quvchi o'z qobiliyatlarini yangi kasbda sinab ko'rishi, ushbu kasb to'g'risidagi tushunchasi qanchalik to'g'ri ekanini xolisona tekshirib ko'rishi lozim. O'z-o'zidan ma`lumki, bunga o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog'langan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin. Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud.

Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma`lumotni ola turib, shu asosda o'zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. —Kim bo'lsam, ekan? muammosi —Qanday odam bo'lish kerak muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga oid ishlarni ta`lim yo'llari oraqil mutassil va izchillik bilan olib borish kerak.

### **3. Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy faollikka, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik ishlarning shakl va usullari.**

**I.R. Konjin** o'z tadqiqotida o'rta maktab o'quvchilarini hayot qiyinchiliklarini engishga tayyorlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan pedagogik

vaziyatlarni tavsifladi. Sakkiz turdagi vaziyatlar aniqlandi, ular o'z navbatida turli darajalarda amalga oshirilishi mumkin.

**1. Qidiruv vaziyati.** O'rta maktab o'quvchilari uchun muhim bo'lgan faoliyatda biror narsani qidirishni tashkil qilishni o'z ichiga oladi, u to'liq bo'lmagan ma'lumotlar, vaqt cheklovlari kabi qo'shimcha murakkablashtiruvchi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin. Bu holda qidiruv keng ko'lamda ko'rib chiqiladi: mavzuni qidirishdan o'qituvchilar tomonidan yaratilgan vaziyatdan chiqish yo'lini topishgacha. Ushbu turdagi vaziyat jamoaviy va individual darajada qo'llaniladi.

**2. Katalizator holati.** Bu bolaning o'zini o'zi bilish va o'zini o'zi anglashdagi faolligini rag'batlantiradigan pedagogik harakatdir. Qoidaga ko'ra, bunday harakat o'rta maktab o'quvchisidan biroz kuch sarflashni talab qiladigan bir qator vaziyatlardan oldin bo'ladi. Katalizator holati nafaqat o'rta maktab o'quvchisini faollashtiradi, balki hayotdagi qiyinchiliklarni engib o'tish qiymati haqida g'oyani ham o'z ichiga oladi va shaxsning qadriyat va motivatsion sohalariga ta'sir qiladi. Katalizator vaziyatiga misol sifatida ma'lum bir bola bilan o'tkazilgan suhbat va lager smenasining barcha ishtirokchilariga tegishli bo'lgan targ'ibot guruhini tashkil etish bo'lishi mumkin.

**3. Ajablanadigan va yangilik holati.** O'qituvchi uchun yangi vaziyatlarning yuqori sinf o'quvchilari uchun ahamiyatli bo'lishi, yangi faoliyatni o'zlashtirishga qiziqish uyg'otishi, yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi muhimdir. Bundan tashqari, tanish sharoitlarda faoliyatning yangi shartlarini joriy etish imkoniyati, allaqachon shakllangan ko'nikma va qobiliyatlardan foydalanishning nostandart holatlari o'rta maktab o'quvchilariga tanish bo'lgan faoliyatda murakkab hayotiy vaziyatlarni shakllantirishga imkon beradi.

**4. Mas'uliyat va ahamiyatli vaziyat.** Bunday holda, qandaydir vaziyat yoki faoliyatga alohida munosabat yaratish texnikasi qo'llaniladi. Bajarilayotgan ish uchun mas'uliyat hissi, faoliyatning jamoa uchun ahamiyati, ma'lumot guruhi va kattalar tomonidan baholanishi vaziyatlarning ahamiyatini va ularni

hal qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engib o'tishni sezilarli darajada oshiradi.

**5. Cheklangan imkoniyatlar holati.** Ehtiyojlarni qondirish qiyin bo'lgan sharoitlarda faoliyat har doim individual resurslardan foydalanishda qiyinchiliklarga olib keladi. Xususan, maqsadga erishish yo'llarini cheklash yangi vositalarni izlash uchun sharoit yaratadi, to'siqlarni engib o'tishga e'tiborni yaratadi, faoliyatning o'ziga xos usullarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu turdagi vaziyatlardan yuqori sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatida va o'quvchilar yetakchilari bilan ishlashda ancha keng foydalaniladi.

**6. To'siq holati eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.** O'rta maktab o'quvchilarining u yoki bu faoliyat turida to'siqlarga duch kelishi qiyinchilik tug'diradi. Bunday to'siq intellektual qiyinchiliklar, qaror qabul qilish zarurati, do'stlar yoki kattalar bilan qiyin munosabatlar, shaxsiy kompleksni engish zarurati bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlar o'z-o'zidan yaratilishi mumkin yoki o'rta maktab o'quvchisi bunday to'siqni engib o'tish zarurati uchun oldindan tayyorlanishi mumkin.

**7. Alternativlar holati.** Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tanlov va qaror qabul qilish ko'pincha o'rta maktab o'quvchilari uchun murakkab hodisaga aylanadi. Muqobil vaziyat asosan individual ishda qo'llaniladi, chunki hatto jamoaviy qarorlar ham har kimning shaxsiy tanlovi bilan birga keladi.

**8. Provokatsion vaziyat.** Provokatsiyalardan foydalanish psixoterapiyada juda yaxshi ma'lum bo'lib, ular pedagogik amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Uslubning mohiyati o'rta maktab o'quvchisining faolligini rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bu aniq ziddiyatli vaziyatda. Aynan shunday vaziyatlarda, qoida tariqasida, shaxsning axloqiy, irodaviy, axloqiy fazilatlari sinovdan o'tkaziladi. Provokatsion vaziyatdan foydalanish o'qituvchidan nafaqat vaziyatning o'zini tashkil qilishni, balki vaziyatdagi xatti-harakatlarning oqibatlarini namoyish qilish va uning aks etishi bo'lsa, keyingi ta'sirga ega bo'lishni ham talab qiladi. U yoki bu texnikani tanlash qiyin hayotiy vaziyat turiga, ma'lum bir o'rta maktab o'quvchisi uchun yaratilishi kerak bo'lgan tajribalar turiga, bolaning individual xususiyatlariga,

xususan, uning qiyinchiliklarni engishga tayyorligiga bog'liq. O'rta maktab o'quvchilari bilan ishlashning tashkilotchilari rolini pedagogik jamoa a'zolari va birinchi navbatda o'rta maktab sinf o'qituvchilari bajaradilar. Ammo yoshlar tashkilotlari rahbarlarining o'rta maktab o'quvchilari hayotiga ta'siri ortib bormoqda. Shunday qilib, o'rta maktab o'quvchilari boshqa toifadagi yoshlar qatori ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ob'ekti hisoblanadi. Ammo shu bilan birga, bu toifadagi yoshlarning xususiyatlarini va ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga e'tibor qaratgan holda, ularning hayotining ushbu bosqichining xususiyatlarini hisobga olish kerak. Shu bilan birga, maktab o'quvchilarining hayotiy muammolarini hal qilishda ularga yordam berish juda muhimdir. Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarni jamiyat hayotidagi voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etishga, ularda faol ishtirok etishga, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishga undaydi.

### **Darslar Mazmunini Integratsiyalash:**

**Usuli:** "Tarbiya" fani, tarix, huquqshunoslik, adabiyot kabi fanlarda mavzularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan bog'lash.

**Shakli:** Muammoli o'qitish, bahs-munozara (debat) darslari, keys-stadi (amaliy vaziyatlarni tahlil qilish).

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini amaliyotda sinashga yordam beradi.

### **O'zini-o'zi Boshqarish Organlari:**

**Usuli:** O'quvchilarni maktab hayotini boshqarishga jalb qilish, mas'uliyatni his ettirish.

**Shakli:** Maktab prezidenti, sinf sardorlari, o‘quv kengashi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash.

### **Tadbirlar va Uchrashuvlar:**

**Usuli:** Fuqarolik qadriyatlarini targ‘ib qilish, namuna ko‘rsatish.

**Shakli:** "Fuqarolik soatlari", huquq-tartibot organlari vakillari, mahalliy hokimiyat xodimlari, yosh faollar bilan davra suhbatlari va uchrashuvlar.

### **Ijodiy va Ilmiy Faoliyat:**

**Usuli:** Ijtimoiy muammolarga e'tiborni qaratish, tahlil qilish va yechim topish.

**Shakli:** Konferensiyalar, insholar tanlovlari, ijtimoiy mavzudagi devoriy gazetalar va videoroliklar tayyorlash.

## **4.Yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida salbiy illatlar (huquqbuzarlik, zararli odatlar) profilaktikasi va ularni oldini olishda ijtimoiy-pedagogning faoliyati.**

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash masalalari azaldan Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, ko‘plab mutafakkirlarimiz asarlarida xalkimizning murakkab tarixiy - madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan vokea - hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan oiladan izlash an'anasini uchramiz. Xususan, oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayxon Beruniyning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston", "O‘tgan avlodlar obidalari", Abu Ali ibn Sinoning "Axloq", "Axloq fani", "Oila xo‘jaligi", Alisher Navoiyning "Hayrat - ul - abror" va "Mahbub - ul - qulub" asarlarida o‘z ifodasini topgan. Millatimiz boshiga tushgan ko‘pgina achchiq qismatlar dastavval oila tarbiyasidagi kamchiliklar oqibati ekanini ma'rifat ahllari yaxshi anglashgan. Bizning ham fikrimizcha, bundan xolos bo‘lishda oila tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tarbiyalari" asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi. "Har bir millatning saodati va izzati, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq" -deb yozadi u, tinchlik va totuvlik esa shu millat

oilalarining intizomiga tayanadi. Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishdan asosiy maqsad, ularning ona Vatan oldidagi burchi, o'z taqdiri uchun ma'sul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Oila ta'lim -tarbiya maskani bo'lib, milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish aynan oiladan boshlanadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi va bu jarayon yuksak ma'naviyatlilikni talab etadi. Mustaqillik yoshlar kamolotida yangicha talablar ham qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'prok ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar talab etila boshlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy sohalarda ham islohotlar olib borish zaruriyati nazarda tutildi.

### **Tashxis Usullari:**

**Ijtimoiy Pasportlashtirish:** O'quvchilarning oilaviy sharoitlari, tarbiya muhiti, moddiy ahvoli va bandligini o'rganish.

**So'rovnomalar va Testlar:** O'quvchilarning salbiy illatlarga munosabati, ularning stressga chidamliligi, qiziqishlari va bo'sh vaqtini o'tkazish usullarini aniqlash.

**Kuzatuv:** O'quvchilarning xulq-atvoridagi o'zgarishlar, darsdagi ishtiroki va tengdoshlari bilan munosabatini kuzatish.

**Ijtimoiy-Pedagogning Roli:** Yuqori xavf guruhidagi o'quvchilarni (noto'liq oilalar, nazoratsiz qolganlar, maktabga muntazam kelmaydiganlar) erta aniqlash va ularning shaxsiy holati bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

**Profilaktik Ishlarning Asosiy Yo'nalishlari:** Ijtimoiy-pedagogning profilaktika faoliyati uch asosiy darajada amalga oshiriladi:

#### **2.1. Birlamchi Profilaktika (Barcha O'quvchilar Uchun)**

**Maqsad:** Salbiy illatlarning oldini olish va ularga qarshi immunitetni shakllantirish.

**Shakllari:** Huquqiy Savodxonlikni Oshirish: Huquqshunoslar ishtirokida ma'ruzalar, "Mening Konstitutsiyam" kabi tadbirlar orqali qonunlarga hurmat va huquqiy javobgarlikni tushuntirish.

**Sog'lom Hayot Tarzi Targ'iboti:** Sport musobaqalari, viktorinalar va shifokorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, zararli odatlarning inson salomatligiga ta'sirini ilmiy asoslash.

**Ijtimoiy-Psixologik Treninglar:** Konfliktlarni hal qilish, stressni boshqarish, o'ziga ishonchni oshirish (asssertiv xulq-atvor) ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

## **2.2. Ikkilamchi Profilaktika (Xavf Guruhidagi O'quvchilar Uchun)**

**Maqsad:** Xulq-atvorida salbiy o'zgarishlar kuzatilgan yoki yomon odatlarga moyilligi bor o'quvchilar bilan individual ishlash.

**Usullari:**

**Individual Konsultatsiyalar:** Muammoning sabablarini birgalikda aniqlash va shaxsiy rivojlanish rejalarini tuzish.

**Kichik Guruhli Mashg'ulotlar:** O'xshash muammolarga ega o'quvchilarni birlashtirib, o'zaro qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish va mas'uliyatni oshirish.

**Bandlikni Ta'minlash:** O'quvchini qiziqishiga mos to'garak, sport seksiyasi yoki foydali ijtimoiy faoliyatga (volontyorlik) jalb qilish.

## **2.3. Uchlamchi Profilaktika (Huquqbuzarlik Sodir Etganlar Uchun)**

**Maqsad:** Vaziyatni tuzatish, qayta takrorlanishining oldini olish va o'quvchini jamiyatga qayta moslashtirish.

**Shakllari:**

**Maktab Ichki Nazorati:** Sinf rahbari, psixolog va ijtimoiy-pedagog nazorati ostida o'quvchining maktabdagi faoliyatini doimiy kuzatib borish.

**Hukuk-Tuzatish Ishlari:** Ichki ishlar profilaktika inspektori va maktab o‘rtasida mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

**Jamoatchilik Nazorati:** Mahalla faollari, ota-onalar, sinf jamoasi ishtirokida muhokamalar tashkil etish va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish.

### **Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik**

Ijtimoiy-pedagogning ishi faqat maktab devorlari bilan cheklanmasligi kerak. Muammoni yechishda oila va jamoatchilikning ishtiroki muhim:

**Ota-onalar Bilimini Oshirish:** Ota-onalar uchun "O‘smir psixologiyasi", "Farzandingizga qanday quloq tutish kerak" kabi mavzularda seminarlar tashkil etish.

**Oila-Maktab Hamkorligi:** Qiyin o‘quvchilarning ota-onalari bilan doimiy aloqada bo‘lish, uyiga borib sharoitni o‘rganish va birgalikda chora-tadbirlar rejasini tuzish.

**Mahalla Bilan Ishlash:** Mahalla faollari, Yoshlar yetakchilari va mahalliy hokimiyat organlari bilan doimiy hamkorlik qilish.

Yuqori sinf o‘quvchilari orasida salbiy illatlar profilaktikasi – bu kompleks va uzluksiz jarayon. Ijtimoiy-pedagog ushbu jarayonning koordinatori sifatida barcha ishtirokchilarni (o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar, huquq-tartibot organlari) birlashtirib, tizimli ishni yo‘lga qo‘yadi. Faqat individual yondashuv, erta tashxis va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish orqali yoshlarning salbiy yo‘llarga kirib ketishining oldini olish, ularni jamiyatning faol, ma'suliyatli va qonunga itoatkor a'zolari sifatida shakllantirish mumkin.

### **Mavzu yuzasidan amaliy nazorat savollari:**

1. Yuqori sinf o‘quvchilari bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy o‘zlikni anglash (kasb tanlash) jarayonini rivojlantirishda ijtimoiy pedagogning asosiy funksiyalari va qo‘llaydigan metodlari qanday?
3. Yuqori sinf o‘quvchilari orasida uchraydigan, ijtimoiy-pedagogik aralashuvni talab qiluvchi, xavfli xulq-atvor shakllari (masalan, zararli

odatlar, deviant xulq, zo‘ravonlik) va ularning oldini olishda amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar qaysilar?

4. Yuqori sinf o‘quvchilari bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarni amalga oshirishda oila, maktab psixologi va mahalliy jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik shakllari va mexanizmi qanday bo‘lishi kerak?
5. Ijtimoiy-pedagogik ish jarayonida yuqori sinf o‘quvchilarida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas’uliyat va faollik kabi sifatlarni shakllantirish uchun qanday loyihalar yoki interaktiv usullar samarali hisoblanadi?



## 11-mavzu. Kasb-hunar maktabi o‘quvchilarini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash


### Reja:

1. Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari va ahamiyati.
2. O‘quvchilarning ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlarini aniqlash va diagnostikasi.
3. Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash faoliyatining yo‘nalishlari va shakllari.
4. Qo‘llab-quvvatlash samaradorligini baholash va takomillashtirish.

**Tayanch iboralar:** Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, Kasb-hunar maktabi o‘quvchilari, Ijtimoiy himoya, Psixologik yordam, Pedagogik ko‘mak, Diagnostika, Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar, Pedagogik jamoa, Ijtimoiy pedagog.

## **1. Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari va ahamiyati.**

Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash — o‘quvchining hayotiy faoliyatida, ayniqsa ta‘lim, tarbiya va ijtimoiy munosabatlarda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga, uning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan, kompleks va tizimli professional faoliyatdir. Ular quyidagicha yo‘nalishlarga bo‘linadi:



## Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashning tamoillari.

1. Insonga yo'naltirilganlik (Gumanizm): Har bir o'quvchining shaxsiy qadriyatini e'tirof etish.

2. Ko'ngillilik (Ixtiyoriylik): Qo'llab-quvvatlash faqat o'quvchining roziligi bilan amalga oshiriladi (ayrim holatlar bundan mustasno).

3. Komplekslik (Yaxlitlik): Pedagogik, psixologik, ijtimoiy va tibbiy yordamni birgalikda qo'llash.

4. Maxfiylik: O'quvchiga oid shaxsiy ma'lumotlarning sir saqlanishi.

5. Faoliyat subyektligi: O'quvchini muammoni hal etuvchi passiv obyektidan faol subyektga aylantirish.

### Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash bir necha nazariyalarga tayanadi:

**Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv (K. Rojers):** Har bir inson o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir. Qo'llab-quvvatlash ularning ichki resurslarini ochishga yordam beradi.

**Ijtimoiy o'rganish nazariyasi (A. Bandura):** O'smirlarning xulq-atvori va ko'nikmalari ijtimoiy muhit orqali, kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Qo'llab-quvvatlash ijobiy modellar yaratishni nazarda tutadi.

**Rivojlanish psixologiyasi (E. Erikson):** Har bir yosh davrining o'z vazifalari (o'spirinlikda o'zlikni topish) mavjud. Qo'llab-quvvatlash bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

**Ekologik yondashuv (U. Bronfenbrenner):** O'quvchining rivojlanishi uning atrofidagi turli tizimlar (oila, maktab, mahalla, ijtimoiy muhit) bilan o'zaro ta'siriga bog'liq. Qo'llab-quvvatlash bu tizimlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda ushbu faoliyat bir qator normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi, bu esa qo‘llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasida e’tirof etilishini anglatadi:

- "Ta'lim to‘g‘risida"gi qonun.
- "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi qonun.
- Professional ta'lim tizimini takomillashtirishga oid Prezident farmonlari va qarorlari.
- Maktablarning ichki Nizomlari va pedagogik kengash qarorlari.

Bu hujjatlar ijtimoiy-pedagogik xizmatning tashkiliy tuzilmasi, vazifalari, uning xodimlari (ijtimoiy pedagog, psixolog) faoliyatining huquqiy asoslarini belgilaydi.

### **1. Yaxlit Rivojlanish Tamoyili (Holistik Yondashuv)**

**Mohiyati:** Shaxsni faqat o‘quvchi yoki tarbiyalanuvchi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq biologik, psixologik, ijtimoiy va ma’naviy qismlardan iborat yaxlit bir butun sifatida ko‘rib chiqadi.

**Nazariy bog‘liqlik:** Gumanistik psixologiya (A. Maslou, K. Rojers) g‘oyalari asoslanadi, bunda har bir shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga intilishi muhimdir.

### **2. Ijtimoiylashuv Nazariyasi**

**Mohiyati:** Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi – bu bolaning (yoki shaxsning) jamiyatda yashash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, qadriyat va xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishi (ijtimoiylashuvi)ga yordam berish.

**Nazariy bog‘liqlik:** Sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya (P. Berger, T. Lukman, L. Vigotskiy) nazariyalariga tayanadi. Ijtimoiy muhit (oila, maktab, jamiyat) shaxsning shakllanishidagi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

### **3. Inson Qadr-Qimmatini Hurmatlash va Vakolat Berish (Empowerment)**

**Mohiyati:** Har bir shaxsning o'ziga xos qadr-qimmatini hurmat qilish, kelib chiqishidan qat'i nazar, unga mehr-oqibat va hamdardlik bilan munosabatda bo'lish. Shaxsga o'z hayoti va taqdirini o'zi belgilash uchun imkoniyat (vakolat) berish.

**Ahamiyati:** Bu tamoyil shaxslarda mustaqillik, mas'uliyat va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

#### **4. Pedagogik Yordam va Qo'llab-Quvvatlash Tushunchasi**

**Yondashuv:** Ijtimoiy pedagogning faoliyati tarbiyalashdan ko'ra ko'proq yordam berish, ya'ni shaxsning o'zi muammosini yechishi uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan.

#### **Qo'llab-Quvvatlash Komponentlari:**

**Ta'limiy yordam:** Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, ta'lim olishda ko'maklashish.

**Psixologik yordam:** Stress, inqiroz holatlarida psixologik qo'llab-quvvatlash va korreksiya (to'g'rilash) qilish.

**Vositachilik yordami:** Bola va uning ijtimoiy muhiti (oila, maktab, mahalla) o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish.

#### **O'quvchilarning ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlarini aniqlash va diagnostikasi.**

Zamonaviy jamiyatda bolalar turli xil muhitlarda o'sib ulg'ayadi, bu esa ularning rivojlanishi va moslashuvi uchun turli xil qiyinchiliklar va imkoniyatlarni yaratadi. Ba'zi bolalar iqtisodiy, ijtimoiy yoki oilaviy muammolar tufayli meyorlardan og'ishishi mumkin. Ijtimoiy pedagogika, bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi va ularning ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Meyordan og'ishgan bolalarga yordam berish, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va jamiyatning to'liq huquqli a'zolari sifatida rivojlanishlariga ko'maklashish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayon nafaqat bolalar uchun, balki ularning oilalari va kengroq jamiyat uchun ham foydali hisoblanadi, chunki bu orqali jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va farovonligi oshadi. Meyordan og'ishgan bolalarni

diagnostikasi va profilaktikasi, ularning ehtiyojlarini aniqlash va ular uchun eng mos keladigan yordam va resurslarni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Bu boradagi ishlar, bolalarning ehtiyojlariga javob beradigan, ularni qo'llabquvvatlaydigan va ularning ijtimoiy integratsiyasini osonlashtiradigan samarali yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Ijtimoiy pedagogikada meyordan og'ishgan bolalarni diagnostikasi va profilaktikasi mavzusiga bag'ishlangan ushbu esse, bu sohadagi muhim masalalardan birini ko'rib chiqadi. Meyordan og'ishgan bolalar, jamiyatning eng nozik va ehtiyojmand qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ushbu bolalar, turli sabablarga ko'ra, o'zlarining tengdoshlaridan farqli o'laroq, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu muammo o'z navbatida, ularning kelajakdagi hayot sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy pedagogik sohada ularning diagnostikasi va profilaktikasi juda muhimdir. Meyordan og'ishgan bolalarni aniqlashda diagnostika, ularning holatini tushunish va kerakli yordamni taqdim etishning birinchi qadamidir. Diagnostika jarayoni, bolaning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va ta'limiy holatini baholashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: Ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali bolaning ijtimoiy va ruhiy holati haqida ma'lumot to'planadi. Bolaning maktabdagi va uy sharoitidagi xulq-atvori kuzatiladi. Bu, ularning ijtimoiy moslashuvi va muomala qilish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

**Psixologik testlar:** Bolaning intellektual darajasini, shuningdek, ruhiy holatini aniqlash uchun turli psixologik testlardan foydalaniladi. Bolaning ta'limiy yutuqlari va o'qish qobiliyatini baholash, ularning ta'lim sohasidagi ehtiyojlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Maktab va mahalla dasturlari orqali bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish, ularning tengdoshlari bilan muomala qilish qobiliyatini oshiradi. Ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlar — bu o'quvchining jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishi, o'zini-o'zi anglab yetishi, shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi va to'laqonli shaxs sifatida rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar va yordamga bo'lgan talabidir.

## **1. Ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlar tushunchasi**

Bu ehtiyojlar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**Ijtimoiy moslashuv ehtiyoji:** Jamiyatdagi normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalariga moslashish, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish.

**Muloqot ehtiyoji:** Tengdoshlari, kattalar (o'qituvchilar, ota-onalar) bilan samarali muloqot o'rnatish, hamkorlik qilish.

**O'z-o'zini anglash va rivojlanish ehtiyoji:** O'z qobiliyatlari, qiziqishlari va hayotdagi maqsadlarini aniqlash.

**Hissiy-emotsional ehtiyojlar:** Xavfsizlik, qo'llab-quvvatlash, hurmat va qabul qilinishga bo'lgan ehtiyoj.

**Korreksion-rivojlantiruvchi ehtiyojlar:** Agar o'quvchida rivojlanishda yoki xulq-atvorda me'yordan og'ishlar (deviant xulq-atvor) mavjud bo'lsa, ularni tuzatish (korreksiya) va oldini olish (profilaktika) yuzasidan yordamga bo'lgan ehtiyoj.

## 2. Diagnostika maqsadi va ahamiyati

**Maqsad:** O'quvchining ijtimoiy-pedagogik holatini har tomonlama o'rganish, uning rivojlanishidagi qiyinchiliklar, muammolar va me'yordan og'ish sabablarini aniqlash, shuningdek, shaxsiy salohiyatini va qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini baholash.

### Ahamiyati:

**Individual yondashuv:** Har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

**Oldini olish (Profilaktika):** Muammolar chuqurlashmasdan, ularning dastlabki belgilarini aniqlash va oldini olish choralarini ko'rish.

**Korreksiya:** Aniqlangan muammolarni bartaraf etish yoki yumshatish bo'yicha aniq korreksion ish dasturlarini ishlab chiqish.

**Samaradorlikni oshirish:** O'quvchining ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlash.

## 3. Diagnostika usullari va vositalari

Ijtimoiy-pedagogik diagnostika jarayoni tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. **Qo‘llaniladigan asosiy usullar:**

Diagnostika usuli	Tavsifi	Nimalarni aniqlaydi
Kuzatuv	O‘quvchining maktabda, dars jarayonida, tanaffusda va ijtimoiy faoliyatlardagi xulq-atvori, tengdoshlari bilan munosabati kuzatiladi.	Xulq-atvor me‘yorlari, muloqot qobiliyati, hissiy holat.
Suhbat (Intervyu)	O‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilar va sinf rahbari bilan individual yoki guruhli suhbatlar o‘tkazish.	Muammolarning sabablari, oilaviy sharoit, qiziqishlar, ehtiyojlar.
So‘rovnomalar/Anketalar	O‘quvchilarga, ota-onalarga va pedagoglarga turli mavzular (ijtimoiy muhit, qadriyatlar, xavfsizlik, ta’limga munosabat) bo‘yicha savollar berish.	Ijtimoiy ehtiyojlarning umumiy darajasi, shaxsiy xususiyatlar, munosabatlar.
Sotsiometriya	Guruh (sinf) ichidagi o‘zaro munosabatlarni, liderlar, izolyatsiyadagi o‘quvchilarni, guruh jipsligini aniqlash.	Sinfdagi ijtimoiy aloqalar xaritasi, o‘quvchining guruhdagi mavqei.
Proyektiv metodikalar	Rasmlar, tugallanmagan gaplar yoki hikoyalar orqali o‘quvchining ichki kechinmalari, yashirin	Hissiy-emotsional holat, ichki nizolar.

Diagnostika usuli	Tavsifi	Nimalarni aniqlaydi
	qo‘rquvlari va munosabatlarini aniqlash.	
Hujjatlarni o‘rganish	O‘quvchining shaxsiy yig‘ma jildlari, tibbiy ma‘lumotlari, davomat va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.	Ta‘limdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy sharoitlar haqida qo‘shimcha ma‘lumot.

#### 4. Diagnostika natijalari va keyingi ishlar

Diagnostika natijalari asosida quyidagilar amalga oshiriladi:

**Tashxis (diagnoz) qo‘yish:** O‘quvchining ijtimoiy-pedagogik muammosi yoki ehtiyoji aniq belgilanadi (masalan, "past ijtimoiy moslashuv", "tengdoshlari bilan nizolar", "o‘qish motivatsiyasining pastligi", "deviant xulq-atvoriga moyillik" va h.k.).

**Korreksion-rivojlantiruvchi dastur tuzish:** Aniqlangan tashxisga mos ravishda individual yoki guruhli yordam dasturlari ishlab chiqiladi. Bu dasturlar:

- Maxsus darslar (ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish).
- Psixologik maslahatlar (individual yoki oila bilan).
- Qiziqishlar bo‘yicha to‘garaklar yoki sport seksiyalariga jalb qilish.
- Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun seminarlar va tavsiyalar berishni o‘z ichiga olishi mumkin.

**Profilaktik ishlar:** Barcha o‘quvchilar uchun ijtimoiy-pedagogik xavflarning oldini olishga qaratilgan umumiy tadbirlar (treninglar, ma‘naviy-ma‘rifiy soatlar, ota-onalar bilan hamkorlik) amalga oshiriladi.

### **3. Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash faoliyatining yo'nalishlari va shakllari.**

Bolalar bilan muloqotda ijtimoiy pedagogik qoidalarni qo'llash, ijtimoiy faoliyatlar va o'yinlar orqali bolalarga guruhda ishlashni, o'zaro muloqotda bo'lishni o'rgatish, bolalarda axloqiy qadriyatlar va mas'uliyat hissini shakllantirish, ijtimoiy yordam va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirish esa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ijtimoiy-pedagogik ishning vazifalariga kiradi.

Ijtimoiy pedagogik ishlarni tashkil etish usullarining bir qancha shakllari bor. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagogik ishlarni samarali amalga oshirish uchun turli usullar va metodlarni qo'llash lozim. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

#### **a) Ta'limiy o'yinlar va mashqlar**

Bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatishda ta'limiy o'yinlar va mashqlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, bolalar o'rtasida guruhda ishlash, jamoa o'yinlarida birgalikda faoliyat yuritish va muammolarni hal qilish orqali bolalar ijtimoiy hamkorlikni o'rganadilar. O'yinlar orqali bolalar o'zaro muomala, yordam so'rash, yordam berish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradilar.

#### **b) Pedagogik suhbatlar va muloqotlar**

Bolalar bilan muntazam pedagogik suhbatlar o'tkazish ularning ongida ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalarining shakllanishiga yordam beradi. Pedagoglar bolalar bilan doimiy ravishda suhbatlashib, ularning savollariga javob berishlari, axloqiy masalalarda izohlar berishlari kerak. Bu jarayon bolalarga ijtimoiy va axloqiy qoidalarga muvofiq harakat qilishni o'rgatadi.

#### **c) Rolli o'yinlar va dramatisatsiya**

Rolli o'yinlar va dramatisatsiya bolalarga turli vaziyatlarni his qilish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va o'zlarini jamiyatdagi bir a'zo sifatida tasavvur qilish imkonini beradi. Bolalar o'zlarini turli ijtimoiy rollarda ko'rsatib, jamiyatdagi o'z o'rnini anglab yetadilar.

#### **d) Ijtimoiy faoliyatlar**

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar uchun turli ijtimoiy faoliyatlar, masalan, jamoaviy bayramlar, ekskursiyalar, tabiatda sayrlar va boshqalar tashkil etilishi kerak. Bu faoliyatlar bolalarning bir-biri bilan aloqa qilishga, o'zaro yordamga, hurmatga va empatiyaga asoslangan ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ijtimoiy pedagogik yondashuv yosh oilalarda oilaviy, diniy, jamiyat ichidagi turli holatlarni tarbiyaviy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi: nikoh, ota-ona bolalar aloqasi, diniy-o‘zlikni shakllantirish, jamiyatda moslashuv. U oilaviy interaksionalarni, oiladagi kommunikatsiyani, farzand tarbiyasini, diniy-madaniy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, ota-ona-bolalar birga tadbirda ishtirok etishi, jamiyat ichida o‘z o‘rnini topishi uchun pedagogik vositalar qo‘llanishi. Ijtimoiy pedagogika metodologiyasi guruh ishiga ham

urg‘u beradi — ya‘ni, oilalar yoki yosh juftliklar guruhida tajriba almashish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash.

#### **4. Integratsiya va barqaror aloqalar shakllantirish**

Ijtimoiy pedagog oilani jamiyat ichida barqaror ishtirokchi qilib shakllantirishga yordam beradi: jamiyat tadbirlarida, diniy yig‘inlarda, oilalararo tarmoqlarda faol bo‘lishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu faqat «kirib kelish» emas, balki o‘z-o‘zini jamiyat ichida topish va uzoq muddatli bog‘lanishlarni hosil qilish degan ma‘noni anglatadi. Masalan, tadqiqotlarda maktab (va sinagog kabi joylar) ota-onalar uchun

#### **5. Muammolarni erta aniqlash va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish**

Yosh oilalarda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli muammolar — farzand tarbiyasi bilan bog‘liq, majburiyatlar bilan bog‘liq, diniy-madaniy moslashuv bilan bog‘liq — ijtimoiy pedagog ular bilan ishlashda muhim vositachi bo‘ladi. U muammolar paydo bo‘lganda oldini olish, to‘liqroq resurslar bilan bog‘lash, oilani mos dasturlarga yo‘naltirish bo‘yicha sherik bo‘ladi. Amaliy tavsiyalar va metodologik jihatlar: Agar ijtimoiy pedagog yosh oilalar bilan sinagogik yoki diniy jamiyat kontekstida ishlasa, quyidagi tavsiyalarni ko‘rib chiqish foydali bo‘ladi: Ijtimoiy pedagogni yosh oilalar bo‘yicha sinagoganing strategik jamoasiga kiritish — ya‘ni uning roli x‘sh-keldi tadbirlar bilan emas, balki oilaviy yo‘nalishdagi strategiya ichida bo‘lishi.

Oilalarning ehtiyojini o‘rganish (so‘rov, intervyu, guruh suhbatlari) va shunga mos dasturlar ishlab chiqish — ijtimoiy pedagog bu jarayonni boshqarishi mumkin.

Oila, sinagoganing boshqa bo‘limlari (bolalar ta‘limi, yoshlar bo‘limi, ota-ona guruhlari) bilan hamkorlik qilish — ya‘ni ijtimoiy pedagogning “ko‘prik” vazifasi bor.

Guruhlar shaklida ishlash — yosh juftliklar, bolali oilalar, ota-ona va bolalar birgalikda qatnashadigan formatlar. Ijtimoiy pedagog guruh ishlarini tashkil etib, interaktiv muhit yaratishi muhim.

Qulay va do‘stona muhit yaratish — oilalarga sinagogaga kelishni qulay qilish; sinagoganing ijtimoiy pedagogik yondashuvini oilalar nuqtai nazaridan “ochiq”, “o‘zini xotirjam his qilish” darajasida qilib qo‘yish.

Barqaror aloqalar o‘rnatish — oilani faqat bir-ikki tadbirga taklif qilish bilan cheklanmasdan, ularni sinagoganing faol ishtirokchisiga aylantirish. Ijtimoiy pedagog bu jarayonni kuzatishi va qo‘llab-quvvatlashi kerak.

XV-XVI asrda avval Italiyada, so‘ngra Yevropaning boshqa davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Paydo bo‘layotgan yangi toifa vakillariga, xususan, ziyolilarga asketizmning tamoyillari begona edi. Yangi burjua madaniyati shakllana boshlagan bir paytda uni tavsiflash uchun insoniylashtirish va qayta tiklash tushunchalari qo‘llanilgan. Gumanizm (insoniylik) tushunchasi yangi madaniyat markazida ilohiylik emas, inson shaxsi turishidan guvohlik berardi. Insonning o‘zi ham qalban va jismonan go‘zal bo‘lishi lozim. U faqatgina o‘z ongi, kuchi, muvaffaqiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha qadriyatlar va o‘z baxtining yaratuvchisiga aylana oladi. Shu bilan birga, gumanistlar cherkovga ochiqdan ochiq qarshi chiqmaganlar. Ular xudoga buyuk yaratuvchi sifatida qarashgan.

XIV-XVI asrlar gumanistlarining aksariyati o‘zlari pedagog bo‘lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat etishgan. Gumanizm g‘oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab kuzatila boshlangan. Asl tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra doim go‘zallik haqida, uning kelajagi haqidagi g‘amxo‘rlikni bildirgan. Uyg‘onish davrida ijtimoiy gumanizm g‘oyalarining amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vitgorino de Genotre (1378 — 1446) tomonidan ilk marta “Quvonch uyi” nomli internat maktabining yaratilishi bilan bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, ta’riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijtimoiy pedagogika bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Diniy qarashlarda asosiy e’tibor umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda, oyatlarda axloqiy o‘gitlar, insonlararo munosabatlar, qavm-qarindoshlarga, bolalarga g‘amxo‘rlik haqida ko‘p gapirilgan. Bu asosda ko‘pgina avlodlar tarbiya topishgan va bu borada Yevropada cherkov uzoq vaqt mobaynida “nogiron bolalar rahnamosi” bo‘lgan. Unga nafaqat ruxdan yordam so‘rab, balki tibbiy, moddiy yordam so‘rab, adolatsizlikdan himoya so‘rab murojaat

qilishgan. Bu borada butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy an'analari mavjud. Masalan, Yevropada antik davrlardan buyon ota-onasiz qolgan bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga qo'yib ketishgan.

Manbalarga ko'ra, ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya shahrida yepiskop Vasiliy Kesariyning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787-yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lgan. Uzoq vaqt u Yevropada yagona tashkilot bo'lib qolavergan va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni o'ttiztagacha ko'paygan. Qizig'i shundaki, bu uylarda faqatgina bolalarga g'amxo'rlik qilmasdan, profilaktika ishlari ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni boshqa oilalar tarbiyasiga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640-yil ruhoniy Vinsento Depolen tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashhur bo'lgan. U tarbiya uyini qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug'ullanuvchi ordenlar - xayriya yo'lida qilgan ishlari orqali keyinchalik mashhur bo'lib ketgan yirik cherkov tashkilotlari tuzila boshlagan.

XVII-XIX asrlar – ijtimoiy pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy konsepsiyalar bilan boyitilgan davr bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. XVIII-XIX asrlar (burjua-demokratik inqiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlangan. Aynan shu davrda ijtimoiy pedagogikadagi asosiy yo'nalishlarning aniq faoliyatda amalga oshishi sodir buladi. Ijtimoiy-pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga fransuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar J.J. Russo (1712-1778) ulkan hissa qo'shgan. U huquqiy, diniy va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari suradi. Rus qomusiy olimi va pedagogi M.V.Lomonosov (1711-1765) "Reglamentlar"ida tarbiyaning xalqparvar g'oyalarini, insonga faol shaxs sifatida yondashuvni hamda bolada axloqiy sifatlarini shakllantirishning o'ta muhimligini bayon etgan. Yangi ijtimoiy-pedagogik g'oyalar fransuz faylasufi va ma'rifatparvari Klod Adriana Gelvesiy (1715-1771) ishlarida


ham tilga olingan bo‘lib, ular tarbiya omillari hisoblanmish muhit va pedagogik ta‘sir hamda shaxs va jamiyat manfaatlarining birligi masalalaridir.

Shvesariyalik buyuk pedagog Iogann Genrix Pestalossi (1746-1827 y) o‘z faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariya va amaliyotni birlashtirgan va o‘z mablag‘lari hisobiga Yetimlar uylarini ochgan. Ingliz faylasufi va pedagogi Robert Ouenning ijtimoiy-pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermahsul tajribalardan iborat. Nyu-Lenarkda “Inson xarakterini tuzishning yangi instituti”ni ishchilarning turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chiqarish ta‘limini madaniyat bilan bog‘lab qo‘ydi. Jahonda ilk marta didaktik o‘yinlar o‘tkaziladigan, bolalarning jismoniy holati haqida g‘amxo‘rlik qiladigan muassasalar u tomonidan tuzilgan. Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari qarashlariga ko‘ra: Oila — jamiyatning ma‘naviy ildizi. Yosh oilaning mustahkamligi — davlatning barqarorligi garovi. Farzand tarbiyasi — insonni kamolotga eltuvchi ilmiy va ma‘naviy jarayon. Oila tarbiyasining asosi — mehr, hurmat, sabr, ilm va odob. Yunagogika fani ana shu qadimiy manbalardan o‘z nazariy poydevorini oladi. Bugungi yosh oilalarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashda bu mutafakkirlarning g‘oyalari metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. “Insonning fazilatlari va ma‘naviy mukammalligi tarbiya orqali hosil bo‘ladi. Oila esa bu tarbiyaning birinchi maskanidir.” Qaysi mutafakkir yoki olimga tegishli fikr va g‘oya?
2. “O‘zingni pok tut, halol bo‘l, xalq ichra foydali bo‘l, ahli ayolingni izzatla.” Kimga tegishli fikrlar
3. Ijtimoiy pedagogika nima?
4. Kim huquqiy, diniy va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g‘oyalarini ilgari suradi?

Topshiriq:



Ushbu suratda berilgan allomalarimizning oila mavzusiga oid qarashlari berilgan asarlarni ma'ruza matni ichidan topib, guruhlarga bo'linib , ushbu asarlar mazmuni yuzasida fikr almashining.

## GLOSSARIY

**1.Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash** - Yoshlarga ijtimoiy muhitga moslashish, hayotiy qiyinchiliklarni yengish, shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishda pedagogik vositalar hamda ijtimoiy yordam orqali ko'mak berishga qaratilgan faoliyat.

**2.Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi** - Yoshlarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatuvchi subyektlar (ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, ijtimoiy xizmatlar, oila, mahalla) va ularning faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmlar, tamoyillar hamda me'yoriy hujjatlar majmuasi. Yoshlar odatda, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan, ijtimoiy shakllanish, kasb tanlash va mustaqil hayotga qadam qo'yish jarayonida turgan ijtimoiy guruh.

**3.Ijtimoiylashuv (Sotsializatsiya)**-Shaxsning jamiyatda yashash uchun kerakli bilim, ko'nikma, qadriyat va me'yorlarni o'zlashtirishi, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish jarayoni.

**4."Yoshlar daftari"**-O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash va manzilli yordam ko'rsatish maqsadida shakllantiriladigan elektron ro'yxat.

**5.Deviant Xulq-atvor (Deviatsiya)**--Jamiyatda qabul qilingan axloqiy yoki huquqiy me'yorlarga zid bo'lgan xatti-harakatlar yoki harakatlar tizimi. (Xulq og'ishi deb ham yuritiladi.)

**6.Profilaktika** - Salbiy hodisalarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Ushbu mavzuda – deviant xulq-atvorning oldini olish.

**7.Ijtimoiy Me'yorlar** - Muayyan jamiyatda yoki guruhda qabul qilingan va a'zolar uchun majburiy hisoblangan xulq-atvor qoidalari, standartlari va namunalari.

**8.Antisotsial Xulq-atvor** - Ijtimoiy me'yorlarga va tartiblarga ochiqdan-ochiq zid bo'lgan, jamiyatga zarar yetkazadigan, ko'pincha qonunni buzish bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlar. (Masalan: o'g'rilik, bezorilik, tajovuzkorlik).

**9.Delinkvent Xulq-atvor** - Voyaga yetmaganlarning jinoyat yoki huquqbuzarlik darajasidagi antisotsial harakatlari. Qonunga xilof xatti-harakatlar.

**10.Autoagressiv Xulq-atvor** - Shaxsning o'ziga yo'naltirilgan salbiy xatti-harakatlari. (Masalan: o'z-o'ziga jarohat yetkazish, suitsid (o'z joniga qasd qilish) harakatlari).

**11.Adiksiya** - Qaramlikning har qanday turi. (Masalan: giyohvandlik, alkogolizm, kompyuter o'yinlariga qaramlik).

**12.Sotsial Disadaptatsiya** - Shaxsning ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini noo'rin tutishi, jamiyat bilan munosabatlarining buzilishi. Risk Omili Deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi yoki rivojlanishi ehtimolini oshiruvchi sharoit, holat yoki xususiyat. (Masalan: noto'liq oila, ota-onalarning nazoratining yo'qligi, tengdoshlarning salbiy ta'siri).

**13.Protektiv Omil** - Deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi yoki rivojlanishi ehtimolini kamaytiruvchi omil. (Masalan: oiladagi ijobiy muhit, maktabdagi qiziqarli mashg'ulotlar, yuksak intellektual salohiyat).

**14.Psixokorreksiya** - Shaxsning ruhiy rivojlanishidagi og'ishlarni tuzatishga qaratilgan psixologik ta'sir usullari. Deviant xulqli shaxslar bilan ishlashning bir shakli.

**15.Ijtimoiy Reabilitatsiya** - Deviant xulq-atvor sodir etgan shaxsni ijtimoiy me'yorlarga qaytarish, uni jamiyat hayotiga to'liq jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar.

**16.Vandalizm** - Umumiy foydalanishdagi mulkni qasddan buzish yoki unga zarar yetkazish. Antisotsial xulq-atvor turlaridan biri.

**17.Bullying (Kiberbulling)** - Tengdoshlar tomonidan doimiy ravishda psixologik yoki jismoniy tazyiq o'tkazish. (Kiberbulling – internet orqali amalga oshiriladigan tahdid va tazyiq).

**18.O'z-o'zini Boshqarish Ko'nikmalari** - Yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish, o'z harakatlarini rejalashtirish, vaqtni boshqarish va hayotdagi qiyinchiliklarni yengish qobiliyatlarini rivojlantirish.

**19."Tarbiyasi Og'ir" Yoshlar** - Deviant (og'ishgan) xulq-atvorga moyil bo'lgan, ijtimoiy me'yorlarni buzadigan yoki xavfli guruhlarga ta'sirchan bo'lgan uyushmagan yoshlar toifasi.

**20.Bo'sh Vaqtni Mazmunli Tashkil Etish** - Uyushmagan yoshlarni salbiy ta'sirlardan himoyalash va ularning ijodiy, sport yoki kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun to'garaklar, sport seksiyalari va madaniy tadbirlar tashkil etish.

**21.Mentorlik (Ustoz-Shogird)** - Hayotiy tajribaga ega bo'lgan kattalar yoki tajribali mutaxassislar tomonidan uyushmagan yoshlarga individual ravishda maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish va shaxsiy namuna bo'lish tizimi.

**22.Reabilitatsiya (Ijtimoiy-Psixologik)** - Salbiy ta'sirlar, qaramliklar yoki huquqbuzarliklar natijasida ijtimoiy hayotdan chetda qolgan yoshlarni tiklash va ularning psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar.

**23.Kasb-hunar Maktabi (KHM)** - Umumiy o'rta ta'lim (9-sinf) negizida o'quvchilarga o'rta maxsus darajada kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan ta'lim muassasasi.

**24.Ijtimoiy-Pedagogik Qo'llab-Quvvatlash** - O'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ularning muammolarini yechish va muvaffaqiyatli sotsializatsiyasiga ko'maklashishga qaratilgan kompleks yordam tizimi.

**25.Professional Adaptatsiya** - O'quvchining tanlagan kasb sohasiga, mehnat sharoitlariga va kasb-hunar maktabi muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi jarayoni.

**26.Hayotiy Rejalashtirish Ko'nikmalari** - O'quvchilarda kelajakdagi maqsadlarni belgilash, ularga erishish yo'llarini aniqlash, o'z vaqtini samarali boshqarish va ta'lim/mehnat jarayonini tizimli tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirish. Risk Guruhi O'quvchilari Kasb-hunar maktablarida o'qishni tashlab ketish, deviant xulq-atvorga moyillik, moddiy qiyinchiliklar yoki oilaviy muammolar tufayli qo'shimcha ijtimoiy-pedagogik yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilar.

**27.Ijtimoiy-Psixologik Diagnostika** - O‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, o‘zlashtirish muammolari sabablarini, ijtimoiy muhitdagi holatini va ruhiy holatini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari.

**28.Pedagogik Konsilium** - O‘quvchining muammolarini kompleks baholash, uning rivojlanishidagi og‘ishlar sabablarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash strategiyasini ishlab chiqish uchun pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy ishchilardan iborat kengash.

**29.Karyera Konsultatsiyasi** - O‘quvchilarga kasb tanlash bo‘yicha aniq ma'lumot berish, ularning iste'dod va qiziqishlariga mos keladigan kasblarga yo‘naltirish, mehnat bozorida tendensiyalar haqida maslahat berish.

**30.Ijtimoiy Kafolatlar** - Kasb-hunar maktabi o‘quvchilari uchun ta'lim jarayonida O‘zbekiston qonunchiligi tomonidan ta'minlanadigan moddiy va ma'naviy yordamlar. (Masalan: stipendiya, imtiyozli ovqatlanish, yotoqxon bilan ta'minlash).

**31.Tarbiyaviy Profilaktika** - Kasb-hunar maktabi muhitida o‘quvchilarda salbiy odatlar, qaramliklar yoki huquqbuzarliklar paydo bo‘lishining oldini olishga qaratilgan doimiy tadbirlar tizimi.

**32.Mas'uliyatsiz Qatnashish** - O‘quvchining sababsiz dars qoldirishi yoki ta'lim jarayoniga loqayd munosabatda bo‘lishi. Bu holat ko‘pincha o‘qishni tashlab ketish (drop-out) xavfini oshiradi."Bitiruvchi Modeli"Kasb-hunar maktabini tamomlagan yoshlarda shakllangan bo‘lishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar (kompetensiyalar) majmui.

**33.Ota-onalar bilan Hamkorlik** - O‘quvchini qo‘llab-quvvatlash tizimining muhim qismi. Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etish, ularga maslahatlar berish va maktab bilan birgalikda tarbiyaviy ishlarni olib borish.

**34.Psixologik Komfort Muhit** - Kasb-hunar maktabida o‘quvchilar o‘zlarini xavfsiz, qadrlil va erkin his qiladigan, o‘rganishga motivatsiyasi yuqori bo‘lgan ijobiy muhitni yaratish.

**35. Muhit** - inson yoki tirik mavjudot yashaydigan, rivojlanadigan, ularning xulq-atvori, fikri va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan atrofdagi tabiiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar majmuidir.

**36. Tarbiya** - shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik va ma'naviy jihatdan har tomonlama kamol topishiga qaratilgan ongli hamda maqsadga yo'naltirilgan jarayondir.

**37. Ijtimoiylashuv** - insonning jamiyat hayotiga moslashish, ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi.

**38. Ijtimoiylashtirish** - insonni jamiyat hayotiga moslashtirish, unga ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'rgatish jarayonidir.

**39. Preformizm** - inson va tirik organizmlarning rivojlanishi haqidagi biologik va falsafiy tushuncha bo'lib, unga ko'ra shaxs yoki organizmning barcha xususiyatlari tug'ilishdan oldin, ya'ni urug' yoki embrionda tayyor holda mavjud bo'ladi, degan g'oya ilgari suriladi.

**40. Bixeviorizm** - ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, degan nazariya.

**41. Pragmatizm** - shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydi.

**42. Diagnostik** - tashxis qo'yish yoki aniqlashga oid degani.

**43. Prognostik** - kelajakni oldindan ko'rish, natijani bashorat qilish yoki rejalashtirish bilan bog'liq tushuncha.

**44. Tarbiya texnologiyalari** - tarbiyaviy jarayonni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va samarali yaratish uchun qo'llaniladigan usul, shakl, vosita va bosqichlarning ilmiy asoslangan majmuasidir.

**45. Axloqiy tarbiya** - ezgulik, halollik, vatanparvarlik, to'g'rilik singari fazilatlarni shakllantirish.

**46. Estetik tarbiya** - san'atni anglash, go'zallikka intilish, did va madaniyatni rivojlantirish.

**47. Jismoniy tarbiya** – sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sportga qiziqish uyg'otish.

**48. Aqliy tarbiya** - bilim olishga, ilmga, tafakkurga bo'lgan qiziqishni shakllantirish.

**49. Mehnat tarbiyasi** - bolalarni mehnatni qadrlashga, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatish.

**50. komponent** - bir narsaning tarkibiy qismi, u butun tizimning ishlashida muhim rol o'ynaydi.

**51. Avesto** - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir.

**52. Zardushtiylik** - Zardusht (Zoroaster) tomonidan asos solingan qadimgi diniy-falsafiy e'tiqod bo'lib, u yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, odamning axloqiy tanlovi g'oyalariga asoslanadi.

**53. Gumanizm** - bu inson va uning qadr-qimmatini, aql-zakovati va erkinligini markazga qo'yuvchi falsafiy, ijtimoiy va madaniy qarashlar majmuasidir.

**54. Individ** - lotincha "individium" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bo'linmas" "alohida", "yagona" ma'nolarini bildiradi.

**55. Individuallik** - bu har bir insonni o'zgalardan ajratib turadigan o'ziga xos, takrorlanmas psixologik va ijtimoiy xususiyatlar majmuasidir.

**56. An'anaviy** - oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shart-sharoitlarni yaratish.

**57. Refleksiv** – o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

**58. Institutsional** - ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish.

**59. Shaxslararo** - o‘quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish.

**60. Ijtimoiy kompetentlik** - insonning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, ijtimoiy vaziyatlarda moslashib, madaniyat va axloq me‘yorlariga rioya qilgan holda muloqot qila olish qobiliyatidir.

**61. Tarbiya metodlari** - tarbiyachi (ota-ona, o‘qituvchi, murabbiy) tomonidan tarbiyaviy maqsadga erishish tufayli qo‘llaniladigan usul va yo‘llar majmuasidir.

**62. Pedagogik tadqiqot metodlari** - ta‘lim va tarbiya jarayonlarini ilmiy tarzda o‘rganish, tahlil qilish, yangiliklarni kiritish hamda ularning samaradorligini aniqlash uchun qo‘llaniladigan ilmiy izlanish usullaridir.

**63. Pedagogik eksperiment** - ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi metod, usul, texnologiya yoki vositaning samaradorligini sinab ko‘rish maqsadida o‘tkaziladigan ilmiy tajribadir.

**64. Irsiyat** - bu ota-ona (ajdodlar)dan farzandlarga biologik belgilar va xususiyatlarning avloddan-avlodga o‘tish jarayoni hisoblanadi.

**65. Pedagogik eksperiment** - ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi metod, usul, texnologiya yoki vositaning samaradorligini sinab ko‘rish maqsadida o‘tkaziladigan ilmiy tajribadir.

**66. Irsiyat** - bu ota-ona (ajdodlar)dan farzandlarga biologik belgilar va xususiyatlarning avloddan-avlodga o‘tish jarayoni hisoblanadi.

**67. Mentorlik**- Tajribali shaxs (mentor) tomonidan tajribasiz yoki yoshroq shaxs (menti, shogird)ga yo‘l-yo‘riq berish, bilim, ko‘nikma va tajribani o‘rgatish jarayoni. Mentorlik – shaxsiy va kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi o‘zaro hamkorlik tizimidir.

**68. Demokratiklik** - bu jamiyat va davlat boshqaruvida xalqning irodasi, teng huquqliligi hamda erkin ishtiroki asosiy tamoyil sifatida e‘tirof etiladigan g‘oya va tizimni ifodalaydi.

**69. Trening** - maqsadli tarzda tashkil etilgan, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yoki rivojlantirishga qaratilgan o‘quv jarayoni. Treningda ishtirokchilar faol ishtirok etadilar, amaliy mashqlar bajaradilar .

**70. Konsultatsiya** - ma’lum bir muammo yoki savol bo‘yicha mutaxassis (masalan, psixolog, o‘qituvchi, shifokor, maslahatchi) tomonidan mijozga yordam ko‘rsatish, yo‘l-yo‘riq berish, tavsiya va maslahatlar taqdim etish jarayoni.

## **TEST TOPSHIRIQLARI**

**1. Eksperiment so‘zi qanday ma’noni anglatadi?**

- a. “sinov”, “tajriba”
- b. “tekshirish”
- c. “nazorat”
- d. “qiyoslash”

**2. Test metodiga kim asos solgan?**

- a. Jeyms Makkin Kattel
- b. A.Bine
- c. I.Kant
- d. G. Broyer

**3. Kim: “tarbiyachi bolalarga faqat nasihatgo‘ylik qilmay, balki o‘z hatti-harakati bilan namuna bo‘lib ta’sir ko‘rsatishi zarur”, deb hisoblangan?**

- a. A.R.Beruniy
- b. A.Navoiy
- c. A.Kuzmina
- d. A.S.Makarenko

**4. Kim tarbiya metodlarini insonga ta’sir ko‘rsatishning quroli deb atagan?**

- a. A.S.Makarenko
- b. Buxoriy
- c. Ushinskiy
- d. Ibn Sino

- 5. Kim: “Agar siz bolalardagi sho‘xlikni o‘ldirsangiz, hech qachon dono odamlarni voyaga yetkaza olmaysiz”, - degan fikrni bildirgan?**
- A.A.Russo
  - Buxoriy
  - Ushinskiy
  - A.S.Makarenko
- 6. Kim “Men ta’sir qilishning jismoniy metodiga qarshiman... Umuman jismoniy jazoni metod sifatida tan olmayman. Men jismoniy jazo foyda keltirgan biror bir oilani ko‘rmadim”, - degan?**
- A.S.Makarenko
  - A.Navoiy
  - Ushinskiy
  - G. Broyer
- 7. O‘spirinlik yosh davrlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?**
- 15-18 yosh
  - 11-14 yosh
  - 19-22 yosh
  - 10-15 yosh
- 8. Qaysi davrda ”men” hissi shakllanib, axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish jarayoni boshlanadi?**
- Ilk bolalik davri
  - o‘smirlik davri
  - o‘spirinlik davri
  - maktabgacha va kichik maktab yoshi davrida
- 9. Pragmatizm oqimi asoschisi kim?**
- D.Dyun
  - E.Torndayk
  - K.Byuller
  - F.Myuller va E.Gekkel
- 10. Ijtimoiylashuvning mexanizmlari nechta?**
- 4ta
  - 5ta
  - 6ta
  - 3ta

- 11.**Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi nimadan iborat?
- Faqat ularning o‘quv faoliyatini nazorat qilish
  - Yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish, ularni jamiyatga integratsiyalashuvini ta‘minlash
  - Ularni barcha muammolardan himoya qilish
  - Sport va madaniyat tadbirlarini tashkil etish
- 12.**O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida tashkil etilgan ma'lumotlar bazasi qaysi?
- "Temir daftar"
  - "Ayollar daftari"
  - "Yoshlar daftari"
  - "Talabalar daftari"
- 13.**Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimining asosiy subyektlariga nimalar kiradi?
- Faqat ta'lim muassasalari va ota-onalar
  - Ta'lim muassasalari, mahalla, NNTlar, davlat organlari, oila, psixologlar
  - Faqat yoshlar tashkilotlari
  - Sport maktablari va musiqa san'at markazlari
- 14.**Ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
- Ta'limiy, tarbiyaviy, psixologik, vositachilik
  - Moliyaviy, huquqiy, tibbiy
  - Ma'muriy, xo‘jalik, texnik
  - Ilmiy, metodik, nazariy
- 15.**"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg'armasining asosiy vazifasi nima?
- Faqat ularga moddiy yordam berish
  - Ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, jumladan, kasb-hunarga o‘rgatish va bandligini ta'minlash
  - Ularga bepul uy-joy ajratish
  - Xorijiy davlatlarga o‘qishga yuborish
- 16.**Ijtimoiy-pedagogik innovatika nima?

- a. Pedagogik jarayonda eski usullardan foydalanish
- b. Yoshlar bilan ishlashda yangi, samarali, ilg'or ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar, usullar va yondashuvlarni yaratish, o'zlashtirish va joriy etish
- c. Loyiha yozmasdan faoliyat olib borish
- d. Faqat chet el tajribasini ko'r-ko'rona ko'chirish

**17.**Yoshlar bilan ishlashdagi loyihaviy faoliyatning asosiy ahamiyati nimada?

- a. a.Faqat grant olishdan iborat
- b. b.Yoshlarning tashabbuskorligini oshirish, ularni real muammolarni hal etishga o'rgatish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish
- c. c.Ko'p vaqtni sarflash
- d. d.Faqat nazariy bilim berish

**18.**Loyihaviy faoliyat bosqichlari (ketma-ketligi) qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. Amalga oshirish, baholash, g'oyani aniqlash, rejalashtirish
- b. Rejalashtirish, amalga oshirish, g'oyani aniqlash, baholash
- c. G'oyani aniqlash, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash
- d. Baholash, rejalashtirish, g'oyani aniqlash, amalga oshirish

**19.**Loyihaviy faoliyatda "barqarorlik" tamoyili nimani anglatadi?

- a. Loyihaning faqat bir marta o'tkazilishi
- b. Loyiha tugaganidan keyin ham uning natijalari va foydasi davom etishi, ijobiy o'zgarishlarning mustahkamlanishi
- c. Loyihaning juda qimmat bo'lishi
- d. Loyihaning juda tez tugatilishi

**20.**"Ijtimoiylashuv (sotsializatsiya)" tushunchasiga eng to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping:

- a. Faqat o'qishni tugatish
- b. Shaxsning bilim, ko'nikma, qadriyat va me'yorlarni o'zlashtirib, jamiyat a'zosi bo'lish jarayoni
- c. Faqat ishga kirish
- d. Kompyuter o'yinlari o'ynash

**21.**Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi nima?

- a. Yoshlarni kasbga yo'naltirish
- b. b.Yoshlarning ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash

- c. c.Faqat maktab intizomini oshirish
- d. Yoshlarning bo'sh vaqtini to'ldirish

**22.**Ijtimoiy pedagog faoliyatining markazida kim turadi?

- a. O'qituvchi
- b. Jamiyat
- c. Yosh shaxs
- d. Rahbarlar

**23.**"Insonparvarlik tamoyili" deganda nima tushuniladi?

- a. Yoshlarni qat'iy nazorat qilish
- b. Yoshlarni shaxs sifatida hurmat qilish
- c. Yagona talabga bo'ysundirish
- d. Texnologiyalarni ko'proq qo'llash

**24.**Ijtimoiy-pedagogik faoliyat tuzilmasiga kirmaydigan elementni belgilang:

- a. Maqsad
- b. Vazifa
- c. Vosita
- d. Tanaffus

**25.**Diagnostik funksiya nima bilan bog'liq?

- a. Kasblarni tanlash bilan
- b. Yoshlarning holatini o'rganish bilan
- c. Dars jarayonini rejalash bilan
- d. Sport mashg'ulotlari bilan

**26.**"Hamkorlik tamoyili" qaysi sohani talab qiladi?

- a. Faqat maktab o'rtasida ishlash
- b. Maktab-oila-jamiyat o'zaro aloqasini
- c. Faqat psixologlar bilan ishlash
- d. Faqat jamoatchilik bilan hamkorlik

**27.**Ijtimoiylashuv nima?

- a. Shaxsning jamiyatdan ajralishi

- b. Shaxsning jamiyatga moslashuvi va unda o‘rin egallashi
  - c. Shaxsning faqat kasb tanlashi
  - d. Shaxsning biologik rivoji
- 28.** Ijtimoiy pedagogning himoya funksiyasi nimalarni o‘z ichiga oladi?
- a. Tadbir o‘tkazish
  - b. Yoshlarning huquqlarini himoya qilish
  - c. Sport to‘garaklarini boshqarish
  - d. Nazorat varaqalarini to‘ldirish
- 29.** “Uzviylik va uzluksizlik” tamoyili nimani bildiradi?
- a. Tarbiya faqat maktabda davom etadi
  - b. Tarbiya jarayoni bosqichma-bosqich va uzluksiz olib boriladi
  - c. Tarbiya faqat ota-ona zimmasida
  - d. Tarbiya faqat ma’naviy yo‘nalishga tegishli
- 30.** Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy natijasi nima?
- a. Hujjatlar soni
  - b. Yoshning ijtimoiy jihatdan shakllanishi
  - c. Tadbirlar sonining ko‘pligi
  - d. Sport yutuqlari
- 31.** Ijtimoiy pedagogning kommunikativ funksiyasi nimalardan iborat?
- a. Sport bilan shug‘ullanish
  - b. Yoshlar bilan samarali muloqot olib borish
  - c. Hisobotlar tayyorlash
  - d. Yangi fanlar yaratish
- 32.** Ijtimoiy pedagog qaysi tashkilot bilan muntazam aloqada bo‘lishi kerak?
- a. Faqat sport maktablari
  - b. Oila, maktab va mahalla
  - c. Faqat sog‘liq markazlari
  - d. Faqat yoshlar ittifoqi
- 33.** Ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunida qaysi yo‘nalish yetakchi hisoblanadi?
- a. Ma’naviy-axloqiy tarbiya
  - b. Musiqa tarbiyasi
  - c. Dizayn
  - d. Sport tadbirlari

- 34.**“Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili” nimani anglatadi?
- Hamma yoshlarni bir xil tarbiyalash
  - Har bir yoshning individual ehtiyojlarini hisobga olish
  - Yagona talab bilan ishlash
  - Faqat ota-onaga tayanish
- 35.**Ijtimoiy pedagogning profilaktik funksiyasi nimaga qaratilgan?
- Muammolarni oldini olishga
  - Hisobot topshirishga
  - Dars o‘tishga
  - O‘yin o‘tkazishga
- 36.**Kompleks yondashuv nima?
- Bir yo‘nalish bilan ishlash
  - Tarbiyaning bir nechta yo‘nalishini uyg‘un olib borish
  - Faqat psixologik yordam ko‘rsatish
  - Faqat huquqiy tarbiya bilan shug‘ullanish
- 37.**Yoshlarning ijtimoiy muhitga moslashuvi nima deb ataladi?
- Megalitsiya
  - Adaptatsiya
  - Modifikatsiya
  - Deformatsiya
- 38.**Ijtimoiy-pedagogik jarayonda o‘qituvchi qanday rol o‘ynaydi?
- Faqat nazoratchi
  - Hamkor va yo‘lboshchi
  - Jarayondan chetda turuvchi
  - Faqat nazorat qiluvchi shaxs
- 39.**Ijtimoiy pedagogning korreksion funksiyasi nima bilan bog‘liq?
- Kamchilik va xulq muammolarini bartaraf etish
  - Musiqqa tanlash
  - Boshlang‘ich ta‘lim o‘tish
  - Hujjatlarni tartibga solish
- 40.**Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy subyekti kim?
- Davlat
  - Oila
  - Pedagog va psixolog
  - Butun jamiyat

## **YUNAGOGIKA FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI**

1. I.S. Kon “yoshlar” toifasiga qanday ta’rif bergan?
2. Yunogogika fanining predmeti nima?
3. Yunogogika fanining obyekti nima?
4. Yunogogika qaysi fanlar bilan aloqador?
5. Yunogogikaning nazariy funksiyasi nechta darajada amalga oshiriladi?
6. Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining odatiy pedagogik vazifalariga nimalar kiradi?
7. Yana qanday tarixiy manbalarda yoshlar masalalari xususida so‘z borgan?
8. G‘arb davlatlaridan yoshlar masalalariga alohida qaragan yana qanday shaxslarni bilasiz?
9. Sharq davlatlaridagi buyuk shaxslarning yoshlar masalalari bo‘yicha fikrlar?
10. Jadidchilik harakati namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
11. Vitgorino de Genotre maktab-internat nomini “Quvonch uyi” deb nomlashiga nima sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
12. Individ va individuallik farqi nimada deb o‘ylaysiz?
13. Ijtimoiylashuv va ijtimoiylashtirish tushunchalariga ta’rif bering.
14. Ijtimoiylashuvning umumiy mexanizmlari nechta?
15. Bixeviorizm nazariyasi asoschisi kim? U qaysi oqim tarafdori?
16. Pragmatizm otaxoni va uning hozirgi davomchisi kim?
17. irsiyat shaxsning shakllanishida qanday rol o‘ynaydi?
18. muhit shaxsning shakllanishida qanday rol o‘ynaydi?
19. shaxs shakllanishida ta’lim-tarbiya qanday rol o‘ynaydi?
20. O‘spirinlik davrining xususiyatlarini sanab ko‘rsating? Qaysi yosh davrlarida mehnat faoliyati, oilaviy hayot, ijtimoiy mavqe barqarorlashib mas’uliyat hissi kuchayadi va hayotiy tajriba ortib ijtimoiy faoliyatda barqarorlik kuzatiladi?
21. Tarbiya tushunchasiga ta’rif bering
22. Hozirgi vaqtda tarbiya metodlari nechiga bo‘linadi?
23. Yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi muammolar nega pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi?
24. Nazariy va empiric metodlar o‘rtasigi farq nimada?

25. Pedagogic tatqiqotlarda zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish qanday yangi imkoniyatlar yaratadi?
26. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy mohiyati nimadan iborat?
27. Ijtimoiylashuv jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi va u yoshlar tarbiyasida qanday ahamiyatga ega?
28. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini sanab bering.
29. Yoshlar bilan ishlashda psixologik qo'llab-quvvatlash nima uchun muhim hisoblanadi?
30. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat tuzilmasining asosiy elementlarini (maqsad, vazifa, subyekt, ob'ekt, vosita, natija) izohlang.
31. Ijtimoiy pedagogning himoya funksiyasining mazmunini tushuntirib bering.
32. Diagnostik funktsiya yoshlar bilan ishlashda qanday vazifani bajaradi?
33. Ijtimoiy pedagogning funksiyalari va vazifalarini venn diagrammasi asosida solishtiring.
34. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlik qaysi omillar ta'sirida shakllanadi?
35. Oila ijtimoiy kompetentlikning qaysi jihatlariga ta'sir ko'rsatadi?
36. Ta'lim muassasalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uchun qanday faoliyatlar amalga oshiriladi?
37. Tengdoshlar guruhi yoshlarning ijtimoiy xulqiga qanday ta'sir qiladi?
38. Yoshlar uchun ijtimoiy kompetentlik nega muhim?
39. Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
40. Ijtimoiy-pedagogik innovatika tushunchasi nimani anglatadi va u yoshlar bilan ishlash jarayonida qanday ahamiyatga ega?
41. Yoshlar bilan ishlashda loyihaviy faoliyat qanday bosqichlardan iborat va uning samaradorligini oshirish omillari nimalardan iborat?
42. Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar yoshlar bilan ishlash jarayoniga qanday innovatsion yondashuvlarni olib kiradi?
43. Mahalliy va xalqaro tajribalarda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirilgan va ular qanday natijalar bergan?
- 44.1. Deviant xulq-atvor profilaktikasining uchta asosiy bosqichini (darajasini) sanab o'ting.

- 45.**O‘quvchi-yoshlar orasida deviant xulq-atvorning oldini olishda maktab psixologi va IIB (Ichki ishlar bo‘limi) profilaktika inspektorining vazifalari va hamkorlikdagi asosiy shakllari nimadan iborat?
- 46.**Profilaktik ishlarning samaradorligini oshirishda "Tizimlilik" va "Komplekslik" tamoyillari qanday rol o‘ynaydi? Bu tamoyillarga amal qilish uchun qanday amaliy chora-tadbirlar zarur?
- 47.**Deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi uchta asosiy omil guruhini (masalan, ijtimoiy, individual, biologik) ko‘rsating. Profilaktik tadbirlar bu omillarni bartaraf etishga qanday qaratilgan bo‘lishi kerak?
- 48.**Kelajakda yoshlar orasidagi deviant xulq-atvor profilaktikasida eng muhim deb hisoblangan ikkita yangi vazifani (yo‘nalishni) tushuntiring. Ularning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi nimada?
- 49.1.**Uyushmagan yoshlar tushunchasi va ularning asosiy toifalari (guruhlari) nimalardan iborat?
- 50.**Uyushmagan yoshlar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarni tashkil etishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan eng dolzarb 3 ta muammo va ularning yechimlari (vositalari) qaysilar?
- 51.3.**Uyushmagan yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb qilishning asosiy shakllari va usullarini sanab bering. Ijtimoiy-pedagogik ishning individual va guruhli shakllarining farqini izohlang.
- 52.**O‘zbekistonda uyushmagan yoshlar bilan ishlash bo‘yicha qabul qilingan asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar (Farmon, Qaror yoki Qonun) va ularning ijtimoiy-pedagogik ishni tashkil etishdagi o‘rni nimadan iborat?
- 53.**Uyushmagan yoshlar bilan ishlashda "Mahalla yettiligi" tizimining (yoki "Yoshlar yetakchisi"ning) asosiy vazifalari va uning ijtimoiy-pedagogik ta'sir mexanizmini tahlil qiling.
- 54.1.**Yuqori sinf o‘quvchilari bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
- 55.**Yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy o‘zlikni anglash (kasb tanlash) jarayonini rivojlantirishda ijtimoiy pedagogning asosiy funksiyalari va qo‘llaydigan metodlari qanday?
- 56.**Yuqori sinf o‘quvchilari orasida uchraydigan, ijtimoiy-pedagogik aralashuvni talab qiluvchi, xavfli xulq-atvor shakllari (masalan, zararli

- odatlar, deviant xulq, zo‘ravonlik) va ularning oldini olishda amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar qaysilar?
- 57.**Yuqori sinf o‘quvchilari bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarni amalga oshirishda oila, maktab psixologi va mahalliy jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik shakllari va mexanizmi qanday bo‘lishi kerak?
- 58.**Ijtimoiy-pedagogik ish jarayonida yuqori sinf o‘quvchilarida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas’uliyat va faollik kabi sifatlarni shakllantirish uchun qanday loyihalar yoki interaktiv usullar samarali hisoblanadi?
- 59.**Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning mazmuni va tamoyillari.
- 60.**Maqsadli guruhlar va muammolarni aniqlash.
- 61.**Qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari va shakllari.
- 62.**Ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati.
- 63.**Samaradorlikni baholash va takomillashtirish.
- 64.**Nima uchun kattalar o‘qitish jarayonida tajribaga tayanish muhim hisoblanadi?
- 65.**O‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyili yunagogik jarayonda qanday amalga oshiriladi?
- 66.**Amaliy yo‘naltirilganlik tamoyilining mohiyati nimada?
- 67.**Kattalar bilan ishlashda shaxsga hurmat va hamkorlik tamoyilini qanday namoyon etish mumkin?
- 68.**“Insonning fazilatlar va ma’naviy mukammalligi tarbiya orqali hosil bo‘ladi. Oila esa bu tarbiyaning birinchi maskanidir.” Qaysi mutafakkir yoki olimga tegishli fikr va g‘oya?
- 69.**“O‘zingni pok tut, halol bo‘l, xalq ichra foydali bo‘l, ahli ayolingni izzatla.” Kimga tegishli fikrlar
- 70.**Ijtimoiy pedagogika nima?
- 71.**Kim huquqiy, diniy va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g‘oyalarini ilgari suradi?

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
2. Karimova V. Yosh psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
3. Karimova V., Jo‘raev M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: 2016.

4. G'oziev E. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2012.
5. Raxmonov N., Allayorov U. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: 2014.
6. Yo'ldoshev J. Pedagogika: Ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2018.
7. To'raqulov X. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: 2016.
8. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati to'g'risidagi Qonun. – 2016.
9. Макаренко А.С. Педагогическая поэма
10. Xushnazarova M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: QDPI nashriyoti, 2022.
11. Qodirov A., Xolmatova M. Yoshlar ijtimoiylashuvi va tarbiya jarayoni. – Toshkent: Fan, 2020.
12. Nishonova Z., Jo'rayev N. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Alisher Navoiy nashriyoti, 2019.
13. G'aybullayev A. Pedagogik faoliyat va ijtimoiy pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
14. Abdullayeva D. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-pedagogik ishning ahamiyati. – BuxDU ilmiy jurnali, 2023.
15. Jo'rayev A. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari va metodlari. – Scienceweb.uz, 2022.
16. Mamatqulova S. Yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida pedagogik yondashuv. – Jizzax DPI ilmiy to'plami, 2021.
17. Ravshanov U. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda hamkorlikning roli. – Yangi O'zbekiston jurnali, 2023.
18. Karimova V.M., Abdullaeva Q.T. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2021.
19. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

20. Rahmonqulova N., Xudoyqulova S. Pedagogik tadqiqot metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
21. Sayfullaeva R., Hasanov S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
22. To‘xtayev Sh., Xo‘jayev O. Pedagogik diagnostika asoslari. – Samarqand, 2021.
23. O‘zR Yoshlar ishlari agentligi hisobotlari. – Toshkent, 2022–2024.
24. “Oila, mahalla va maktab hamkorligi” – metodik qo‘llanma. – Toshkent: Oila ilmiy-amaliy markazi, 2023.
25. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni – 2020.
26. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida” Qonuni – 2016.
27. “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosatini rivojlantirish strategiyasi”.
28. PF-8111-son Farmon: Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash choralari – 2024.
29. UNICEF Uzbekistan. Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects. – 2023.
30. YOMI – Yoshlar muammolarini o‘rganish instituti rasmiy hisobotlari. – 2022–2024.
31. GIIRJ Journal. Mechanisms of Education of Young People in the New Uzbekistan. – 2023.
32. JDPU “Pedagogika va psixologiya” jurnali. – 2021–2024 yillar sonlari.

**Internet saytlar:**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Ta’lim resurslari portali

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O‘zbekiston ta’lim portali

[www.academia.edu](http://www.academia.edu) – Ilmiy maqolalar bazasi

www.researchgate.net – Ilmiy tadqiqotlar bazasi

O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (2016). – Lex.uz

Ijtimoiy pedagogika bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanma. – <https://scienceweb.uz>

BuxDU ilmiy maqolalar bazasi: <https://journal.buxdu.uz>

Ziyonet pedagogika elektron kutubxonasi: <https://ziyonet.uz>

## **Mundarija:**

Kirish.....	2
1-Mavzu. Yunagogika – pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida .....	4
2-mavzu. Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosliklari .....	11
3-mavzu. Shaxs va individuallik. Ijtimoiylashuv va yoshlar ta’limi.....	22
4-mavzu. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi muammolarini tatqiq etishning ilmiy-pedagogik metodlari. ....	33
5-mavzu. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni, tuzilmasi va funksiyalari.....	41
6-mavzu. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish.....	47
7-mavzu. Yoshlarni ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi.....	53
8-mavzu. O‘quvchi yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi .....	65
9-mavzu. Uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik ish .....	80
10-mavzu. Yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish .....	92

11-mavzu. Kasb-hunar maktabi o‘quvchilarini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash .....	108
12-mavzu. Ishlab chiqarish va tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan hamda harbiy xizmatni o‘tayotgan yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash. ....	128
13-mavzu. Yosh oilalarni ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash.....	139
GLOSSARIY .....	149
TEST TOPSHIRIQLARI.....	156
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	166
Internet saytlar: .....	168

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

D.M.Boboqulova, M.M.Abduraimova, D.G‘.Abdugafurova,  
SH.B.Normo‘minova, M.K.Toshtemirova.

## YUNOGOGIKA

( O‘quv qo‘llanma)

### **“Innovative Publication” nashriyoti**

Mas’ul muharrir:

Hojiyeva Sayyora

Muharrir:

Karimov Jasurbek

1365



Bosishga ruxsat etildi 19.05.2026

Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. “Times” garniturası.

Raqamli bosma. Adadi 40 nusxa. Buyurtma № 46

Andijon. Samo ko‘chasi 32-uy

**[innovativepublication01@gmail.com](mailto:innovativepublication01@gmail.com)**